

OLIYGOHLARDA XORIJIY TALABALAR 2025-YIL YAKUNLARI



Bakalavriyat va magistratura bosqichlari
bo'yicha axborot-tahliliy sharh

Mundarija

I. KIRISH.....	3
1.1. Tahlilning dolzarbligi.....	3
1.2. Tadqiqot maqsadi va qamrovi	4
1.3. Asosiy natijalarning qisqacha mazmuni.....	4
II. METODOLOGIK YONDASHUV VA ASOSIY TUSHUNCHALAR.....	6
2.1. Ma'lumotlar manbai va tahlil qamrovi.....	6
2.2. Asosiy tushunchalar va tasnif mezonlari	6
2.3. Indikatori hisoblash metodikasi.....	7
2.4. Reyting balini shakllantirish tamoyillari	9
III. XORIJIY TALABALAR KONTINGENTINING UMUMIY HOLATI VA TARKIBIY TAHLILI	11
3.1. Xorijiy talabalar kontingentining umumiy tavsifi	11
3.2. Xorijiy talabalarining fuqaroligi bo'yicha tahlil.....	12
3.3. Xorijiy talabalarining hududlar kesimida taqsimlanishi	13
3.4. Xorijiy talabalar kontingentining oliy ta'lim tashkilotlari turlari va mulkchilik shakli bo'yicha tahlili.....	14
3.5. Xorijiy talabalarining yosh va gender tarkibi tahlili	16
3.6. Xorijiy talabalar kontingenti bo'yicha asosiy xulosalar	17
IV. OLIY TA'LIM TASHKILOTLARI TOIFALARI KESIMIDA XORIJIY TALABALAR KONTINGENTINING QIYOSIY TAHLILI	20
4.1. Oliy ta'lim tashkilotlari toifalari bo'yicha umumiy tavsif	20
4.2. Xorijiy talabalar soni bo'yicha qiyosiy tahlil.....	21
4.3. Xorijiy talabalar ulushi bo'yicha qiyosiy tahlil.....	22
4.4. Davlatlar guruhlari bo'yicha qiyosiy tahlil	23
V. XORIJIY TALABALARNI JALB QILISHDAGI TENDENSIYALAR, NOMUTANOSIBLIK VA RIVOJLANISH IMKONIYATLARI	26
5.1. Xorijiy talabalar oqimining asosiy tendensiyalari.....	26
5.2. Hududiy va oliy ta'lim tashkilotlari kesimidagi nomutanosibliklar	26
5.3. Ta'lim yo'nalishlari bo'yicha konsentratsiya holati	28
5.4. Xorijiy talabalarni jalb qilish imkoniyatlari	29
VI. XALQARO REYTINGLARNING TOP-1000 TALIGIGA KIRUVCHI MAHALLIY UNIVERSITETLARDA XORIJIY TALABALAR KONTINGENTI TAHLILI	32
6.1. Umumiy tavsif	32
6.2. TOP-1000 toifasidagi universitetlar ko'rsatkichlari.....	32
VII. AMALIY TOIFADAGI OLIY TA'LIM TASHKIOTLARIDA XORIJIY TALABALAR KONTINGENTI TAHLILI	35
7.1. Umumiy tavsif	35
7.2. Amaliy toifadagi oliy ta'lim tashkilotlari reytingi	35

VIII. TIBBIYOT TOIFASIDAGI OLIY TA'LIM TASHKIOTLARIDA XORIJIY TALABALAR KONTINGENTI TAHLILI	40
8.1. Umumiy tavsif	40
8.2. Tibbiyot toifasidagi oliy ta'lim tashkilotlari reytingi.....	40
IX. IJTIMOY-GUMANITAR TOIFADAGI OLIY TA'LIM TASHKIOTLARIDA XORIJIY TALABALAR KONTINGENTI TAHLILI.....	44
9.1. Umumiy tavsif	44
9.2. Ijtimoiy-gumanitar toifadagi oliy ta'lim tashkilotlari reytingi	44
X. IJOD (SPORT) TOIFASIDAGI OLIY TA'LIM TASHKIOTLARIDA XORIJIY TALABALAR KONTINGENTI TAHLILI	51
10.1. Umumiy tavsif.....	51
10.2. Ijod (sport) toifasidagi oliy ta'lim tashkilotlari reytingi	51
XI. TURLI TOIFADAGI OLIY TA'LIM TASHKIOTLARI YETAKCHILARINI QIYOSIY TAHLIL QILISH	55
11.1. Xorijiy talabalar kontingenti bo'yicha toifalar yetakchilari	55
11.2. Xorijiy talabalar soni bo'yicha milliy yetakchi oliy ta'lim tashkilotlari.....	56
11.3. Xorijiy talabalar kontingenti cheklangan oliy ta'lim tashkilotlari.....	58
XII. ASOSIY XULOSALAR VA YAKUNIY QISM	59
1-ilova.....	61
2-ilova.....	63
FOYDALANILGAN MANBALAR.....	65

I. KIRISH

1.1. Tahlilning dolzarbligi

Oliy ta'lim tizimining xalqarolashuv darajasi mamlakatning **global akademik makonga integratsiyalashuvi, universitetlarning raqobatbardoshligi va ta'lim xizmatlari eksporti salohiyatini baholashda muhim ko'rsatkichlardan biri** hisoblanadi. Xorijiy talabalar kontingentining hajmi, geografiyasi va ta'lim yo'nalishlari oliy ta'lim tashkilotlarining xalqaro jozibadorligi, akademik muhitning ochiqligi va ta'lim dasturlarining tashqi bozordagi raqobatbardoshligini ifodalaydi.

Xalqaro amaliyotda **xorijiy talabalar ulushi** universitetlar faoliyatini baholashda muhim mezonlardan biri sifatida qo'llanadi. **QS World University Rankings** va **Times Higher Education World University Rankings** metodologiyalarida xalqaro talabalar ko'rsatkichi universitetlarning xalqarolashuv darajasini baholashda inobatga olinadi. **OECD** va **UNESCO** tahlillarida esa akademik mobillik hamda xorijiy talabalar oqimi bilimlar almashinuvi, inson kapitalini rivojlantirish va milliy oliy ta'lim tizimlarining xalqaro integratsiyalashuvini baholashda muhim omil sifatida qaraladi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda oliy ta'lim tizimini xalqaro standartlar asosida rivojlantirish, universitetlarning xalqaro raqobatbardoshligini oshirish hamda mamlakatni mintaqaviy ta'lim xabiga aylantirishga qaratilgan islohotlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 10-apreldagi "Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar tizimini takomillashtirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-58-son Farmonida oliy ta'lim tashkilotlarining **akademik, tashkiliy va moliyaviy mustaqilligini kengaytirish, milliy reyting natijalari asosida rag'batlantirish tizimini joriy etish** hamda **O'zbekistonni mintaqaviy ta'lim xabiga aylantirish** ustuvor vazifalar sifatida belgilangan.

Shu bois, xorijiy talabalar kontingentining tarkibi, hududiy taqsimoti va oliy ta'lim tashkilotlari kesimidagi holatini tizimli tahlil qilish sohadagi **mavjud tendensiyalar, nomutanosibliklar va rivojlanish imkoniyatlarini aniqlash** uchun muhim ahamiyatga ega.

1.2. Tadqiqot maqsadi va qamrovi

Mazkur axborot-tahliliy sharhning maqsadi **“HEMIS” axborot tizimining 2025-yilgi ma’lumotlari** asosida O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tashkilotlarida tahsil olayotgan xorijiy talabalar kontingentining **shakllanish xususiyatlari, tarkibiy tuzilishi va taqsimotini kompleks baholashdan** iborat.

Tahlil doirasida xorijiy talabalarning umumiy soni, davlatlar guruhlariga bo’yicha tarkibi, hududiy joylashuvi, oliy ta’lim tashkilotlarining mulkchilik shakli, yosh va gender xususiyatlari, shuningdek, oliy ta’lim tashkilotlari toifalari kesimidagi ko’rsatkichlar o’rganildi. Shuningdek, milliy reyting metodologiyasida belgilangan **“xorijiy davlat fuqarosi bo’lgan talabalar ulushi” indikator** asosida oliy ta’lim tashkilotlarining natijalari qiyosiy baholandi.

Tadqiqot natijalari **xorijiy talabalarni jalb qilish siyosati samaradorligini baholash, ma’lumotlar sifatini yaxshilash, milliy reyting metodologiyasini takomillashtirish** hamda **oliy ta’lim tashkilotlarining xalqarolashuv strategiyalarini kuchaytirish** uchun tahliliy asos hisoblanadi.

1.3. Asosiy natijalarning qisqacha mazmuni

2025-yil holatiga ko’ra, oliy ta’lim tashkilotlarida **24 647 nafar xorijiy talaba** tahsil olmoqda.

Jami xorijiy talabalarning **4,66 foizi** Jahon bankining Yuqori daromadli iqtisodiyotga ega rivojlangan mamlakatlar ro’yxatiga kirgan davlatlar (keyingi o’rinlarda – yuqori daromadli davlatlar) (T_1), **29,71 foizi** Markaziy Osiyo davlatlari (T_2) va **65,63 foizi** boshqa davlatlar (T_3) guruhiga mansub. Bu xorijiy talabalar kontingenti asosan **Markaziy Osiyo** va **boshqa xorijiy davlatlar**, xususan **Janubiy Osiyo mamlakatlari** hisobiga shakllanayotganini anglatadi.

Oliy ta’lim tashkilotlari toifalari kesimida **tibbiyot yo’nalishi** yetakchi o’rinni egallaydi. Bu toifada **15 656 nafar** xorijiy talaba tahsil olib, ularning umumiy talabalar kontingentidagi ulushi **14,32 foizni** tashkil etadi.

Xalqaro reytinglarning **TOP-1000 taligiga kiruvchi mahalliy universitetlarda** esa **4 846 nafar xorijiy talaba** tahsil olmoqda.

Bu ko’rsatkichlar xorijiy talabalar oqimi muayyan ta’lim yo’nalishlari va cheklangan sondagi yetakchi oliy ta’lim tashkilotlarida **yuqori darajada jamlanganini** ko’rsatadi.

Xususan, xorijiy talabalar soni eng yuqori bo'lgan **10 ta oliy ta'lim tashkilotida 20 200 nafar talaba** tahsil olmoqda. Bu respublikadagi xorijiy talabalar umumiy sonining **81,96 foiziga** teng.

Mazkur holat xorijiy talabalar kontingentining institutsional va hududiy jihatdan **nomutanosib taqsimlanganini**, shuningdek, ayrim oliy ta'lim tashkilotlarida **xalqarolashuv salohiyatidan hali to'liq foydalanilmayotganini** ko'rsatadi.

II. METODOLOGIK YONDASHUV VA ASOSIY TUSHUNCHALAR

2.1. Ma'lumotlar manbai va tahlil qamrovi

Mazkur tahlilning asosiy ma'lumotlar manbai sifatida **“HEMIS” axborot tizimi** ma'lumotlaridan foydalanildi. Tahlil **2025-yil holatiga shakllangan talabalar kontingenti** to'g'risidagi rasmiy statistik ma'lumotlar asosida amalga oshirildi.

Tadqiqot doirasida O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan xorijiy talabalar kontingentining umumiy hajmi, fuqaroligi, davlatlar guruhlari bo'yicha tarkibi, hududiy joylashuvi, oliy ta'lim tashkilotlarining mulkchilik shakli, yosh va gender xususiyatlari hamda oliy ta'lim tashkilotlari toifalari kesimidagi ko'rsatkichlar tahlil qilindi.

Shuningdek, milliy reyting doirasida qo'llanilayotgan **“xorijiy davlat fuqarosi bo'lgan talabalar ulushi” indikatori** bo'yicha oliy ta'lim tashkilotlarining natijalari qiyosiy baholandi.

Tahlil qamroviga milliy reytingda ishtirok etuvchi **168 ta oliy ta'lim tashkiloti** ma'lumotlari kiritildi. Amalda belgilangan talablarga muvofiq, bitiruvchilari mavjud bo'lmagan yoki ta'lim faoliyatini uch yildan kam muddat davomida amalga oshirgan **32 ta oliy ta'lim tashkiloti** mazkur tahlil va milliy reyting hisob-kitoblariga kiritilmadi. Ushbu oliy ta'lim tashkilotlarining ro'yxati 1-ilovada keltirilgan.

Tahlilning huquqiy va metodologik asosini O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 5-maydagi PF-76-son Farmoni, shuningdek, Ta'lim sifatini ta'minlash milliy agentligi direktori buyrug'i bilan tasdiqlangan hamda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2026-yil 28-fevralda 3783-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan “Oliy ta'lim tashkilotlarining milliy reytingini yuritish to'g'risida”gi nizom tashkil etadi. Hisobot mazkur nizomda belgilangan metodologiya asosida tayyorlandi.

Tahlil jarayonida ma'lumotlarni tizimlashtirish, guruhlash, qiyosiy tahlil va statistik umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Bu yondashuv xorijiy talabalar kontingentining tarkibiy xususiyatlari, taqsimotidagi farqlar va xalqarolashuv darajasini qiyosiy baholash imkonini beradi.

2.2. Asosiy tushunchalar va tasnif mezonlari

Mazkur tahlilda xorijiy talabalar kontingentini baholash uchun bir qator asosiy tushunchalar va tasnif mezonlaridan foydalanildi. Ushbu tushunchalar

tahlil natijalarini yagona metodologik yondashuv asosida talqin qilish, oliy ta'lim tashkilotlari o'rtasidagi ko'rsatkichlarni qiyoslash hamda milliy reyting indikatorini hisoblashda umumiy asosni ta'minlashga xizmat qiladi.

Xorijiy talaba – O'zbekiston Respublikasi fuqarosi hisoblanmaydigan hamda oliy ta'lim tashkilotlarida bakalavriat yoki magistratura ta'lim dasturlari bo'yicha tahsil olayotgan shaxs.

Xorijiy talabalar kontingenti – tahlil davrida oliy ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan barcha xorijiy talabalarning umumiy yig'indisi.

Xorijiy davlat fuqarosi bo'lgan talabalar ulushi – oliy ta'lim tashkilotida tahsil olayotgan xorijiy talabalar sonining jami talabalar kontingentidagi ulushini ifodalovchi milliy reyting indikator.

Davlatlar guruhlari (T_1 , T_2 va T_3) – indikatorni hisoblash maqsadida xorijiy talabalar fuqaroligi bo'yicha quyidagi uchta guruhga ajratiladi:

T_1 – Jahon bankining Yuqori daromadli iqtisodiyotga ega rivojlangan mamlakatlar ro'yxatiga kiruvchi davlatlar fuqarosi bo'lgan talabalar (mazkur davlatlar ro'yxati **2-ildovada** keltirilgan);

T_2 – Markaziy Osiyo davlatlari fuqarosi bo'lgan talabalar;

T_3 – boshqa davlatlar fuqarosi bo'lgan talabalar.

Umumiy kontingent (T_t) – oliy ta'lim tashkilotida bakalavriat va magistratura ta'lim dasturlari bo'yicha tahsil olayotgan talabalarning umumiy soni. Indikatorni hisoblash formulasida maxraj sifatida qo'llaniladi.

Oliy ta'lim tashkilotlari toifalari – oliy ta'lim tashkilotini toifasi talabalarning ta'lim yo'nalishlari bo'yicha ustuvor kontingenti asosida belgilanadi. Unga ko'ra, oliy ta'lim tashkilotlari **amaliy, tibbiyot, ijtimoiy-gumanitar** va **ijod (sport)** fanlari toifalariga ajratiladi.

Bunda taqqoslash uchun qulaylik yaratish maqsadida **xalqaro reytinglarning TOP-1000 taligiga kiruvchi mahalliy universitetlar** toifasiga ham alohida ajratildi.

2.3. Indikatorni hisoblash metodikasi

Milliy reyting doirasida oliy ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan **xorijiy talabalar ulushi** davlatlar guruhlari bo'yicha shakllangan xorijiy talabalar kontingentini hisobga oluvchi **vaznlashtirilgan ko'rsatkich** asosida baholanadi.

Mazkur yondashuv xorijiy talabalarining faqat umumiy sonini emas, balki ularning **mamlakatlar kesimidagi tarkibi, geografik xilma-xilligi va oliy ta'lim tashkilotining xalqaro ta'lim bozoridagi jozibadorligini** ham hisobga olish imkonini beradi.

Xorijiy talabalar ulushi xalqaro reyting metodologiyalarida universitetlarning **xalqarolashuv darajasini baholashda muhim indikatorlardan biri** sifatida qo'llaniladi.

Ushbu ko'rsatkich oliy ta'lim tashkilotining **xorijiy talabalarni jalb qilish salohiyati, ta'lim dasturlarining xalqaro raqobatbardoshligi, akademik muhitning ochiqqligi** hamda **madaniy va akademik xilma-xillikni ta'minlash** imkoniyatlarini ifodalaydi.

Xususan, Quacquarelli Symonds (QS) World University Rankings¹ metodologiyasida **International Student Ratio** ko'rsatkichi xalqaro talabalar sonining jami talabalar kontingentidagi ulushini baholashga xizmat qiladi.

Shuningdek, **International Student Diversity** ko'rsatkichi xalqaro talabalarining faqat miqdorini emas, balki ular kelib chiqqan mamlakatlar xilma-xilligini ham inobatga oladi. Bu universitetning **turli davlatlardan talabalarni jalb qilish qobiliyatini, xalqaro ta'lim bozoridagi nufuzini va ko'p millatli akademik muhitni shakllantirish darajasini** baholash imkonini beradi.

Times Higher Education (THE) World University Rankings² metodologiyasida xalqarolashuv ko'rsatkichlari **International Outlook** bloki tarkibida baholanadi. Ushbu blok **xorijiy talabalar ulushi, xorijiy professor-o'qituvchilar ulushi** hamda **xalqaro hammualliflikdagi ilmiy nashrlar ulushini** o'z ichiga oladi. Bu orqali universitetning **ta'lim jarayoni, akademik kadrlar tarkibi va ilmiy faoliyatidagi xalqaro integratsiya darajasi** kompleks tarzda baholanadi.

Bunda, xalqaro ko'rsatkichlarni baholashda **mamlakat aholisi sonini inobatga oluvchi me'yorlashtirish yondashuvi** qo'llaniladi. Bu yondashuv yirik va kichik mamlakatlarda joylashgan universitetlarni xalqarolashuv ko'rsatkichlari bo'yicha nisbatan adolatli qiyoslashga xizmat qiladi. Xalqaro talabalar yoki xorijiy professor-o'qituvchilarning mutlaq

¹ QS Quacquarelli Symonds. *QS World University Rankings: Methodology*.
URL: <https://www.topuniversities.com/world-university-rankings/methodology> (20.07.2026)

² Times Higher Education. *World University Rankings 2025: Methodology*.
<https://www.timeshighereducation.com/world-university-rankings/world-university-rankings-2025-methodology> (20.07.2026)

sonidan tashqari, ularning **milliy kontekstdagi nisbiy ahamiyati** ham hisobga olinadi.

Shu nuqtayi nazardan, milliy reytingda xorijiy talabalarni davlatlar guruhlarini bo'yicha **vaznlashtirilgan tarzda baholash** xalqaro reytinglarda qo'llanilayotgan **xalqarolashuv mezonlari bilan metodologik jihatdan uyg'un** hisoblanadi. Mazkur yondashuv xorijiy talabalar kontingentini faqat umumiy son orqali emas, balki ularning **geografik tarkibi, kelib chiqish mamlakatlari va oliy ta'lim tashkilotining xalqaro jozibadorligi** nuqtayi nazaridan baholash imkonini beradi.

Indikator quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$K = (3T_1 + 2T_2 + T_3) / T_t$$

bunda:

K – xorijiy talabalar ulushining vaznlashtirilgan indikator;

T₁ – Jahon bankining Yuqori daromadli iqtisodiyotga ega rivojlangan mamlakatlar ro'yxatiga kiruvchi davlatlar fuqarosi bo'lgan talabalar soni;

T₂ – Markaziy Osiyo davlatlari fuqarosi bo'lgan talabalar soni;

T₃ – boshqa xorijiy davlatlar fuqarosi bo'lgan talabalar soni;

T_t – bakalavriat va magistratura ta'lim dasturlarida tahsil olayotgan talabalarining umumiy soni.

Mazkur metodikada qo'llaniladigan **3, 2 va 1 vazn koeffitsiyentlari** xorijiy talabalar kontingentini baholashda ularning **geografik tarkibini hisobga olishga** qaratilgan. Xususan, **yuqori daromadli davlatlar hamda Markaziy Osiyo davlatlaridan talabalarni jalb qilish** indikator qiymatida yuqoriroq vazn bilan aks etadi. Bunday yondashuv xorijiy talabalar ulushini baholashda ularning soni bilan bir qatorda **geografik tarkibi va xalqarolashuv darajasini** ham qiyosiy tahlil qilish imkonini beradi.

Agar natija foiz ko'rinishida talqin qilinsa, **K×100 ga ko'paytiriladi.**

2.4. Reyting balini shakllantirish tamoyillari

Oliy ta'lim tashkilotlarining mazkur indikator bo'yicha reyting bali indikator qiymatini keyingi normallashtirish orqali hisoblanadi. Normallashtirish har bir oliy ta'lim tashkiloti toifasi doirasida natijalarni o'zaro qiyoslash hamda ularni belgilangan baholash shkalasiga keltirish imkonini beradi.

Normallashtirish jarayoni turli toifadagi oliy ta'lim tashkilotlarini o'zaro adolatli qiyoslash imkonini beradi, chunki ularning umumiy talabalar kontingenti, ta'lim yo'nalishlari, ixtisoslashuvi va xorijiy talabalarni jalb qilish salohiyati bir xil emas. Shu sababli reyting bali mutlaq sonlarni emas, balki belgilangan metodologiya asosida hisoblangan **qiyosiy natijani** aks ettiradi.

Milliy reyting metodologiyasida bu indikator bo'yicha maksimal ball oliy ta'lim tashkilotlari toifalariga qarab farqlanadi.

Bunda amaliy, tibbiyot va ijtimoiy-gumanitar toifalardagi oliy ta'lim tashkilotlariga maksimal ball **3 ball**, ijod (sport) toifasidagi oliy ta'lim tashkilotlariga esa **2 ball** beriladi.

Xalqaro reytinglarning **TOP-1000 taligiga kiruvchi mahalliy universitetlar** milliy reytingda alohida toifa sifatida baholanadi. Ular milliy yetakchi oliy ta'lim tashkilotlari sifatida e'tirof etilib, o'z toifasida xalqaro reytinglarda egallagan o'rniga muvofiq joylashtiriladi.

Shu munosabat bilan mazkur indikator bo'yicha ushbu universitetlarga alohida reyting bali hisoblanmaydi.

Shunday qilib, bu indikator bo'yicha yuqori natijaga erishish faqat xorijiy talabalarining mutlaq soniga bog'liq emas. Baholash jarayonida xorijiy talabalarining jami talabalar kontingentidagi ulushi, shuningdek, ularning davlatlar guruhlariga bo'yicha tarkibi ham hisobga olinadi. Bu oliy ta'lim tashkilotlarining xalqarolashuv darajasini yanada xolis va qiyosiy baholash imkonini beradi.

Mazkur bobda tahlilning huquqiy, metodologik va axborot asoslari yoritildi. Shuningdek, hisobotda qo'llanilgan asosiy tushunchalar, indikatorni hisoblash tartibi, reyting balini shakllantirish tamoyillari hamda tahlil natijalarini talqin qilishda inobatga olinishi lozim bo'lgan cheklovlar bayon etildi.

Ushbu metodologik asoslar xorijiy talabalar kontingentini yagona mezonlar asosida baholash, oliy ta'lim tashkilotlari natijalarini o'zaro qiyoslash va xalqarolashuv darajasini tahlil qilish uchun zarur asosni shakllantiradi. Keyingi boblarda mazkur yondashuvlar asosida xorijiy talabalar kontingentining tarkibi, taqsimoti va asosiy tendensiyalari tahlil qilinadi.

III. XORIJIY TALABALAR KONTINGENTINING UMUMIY HOLATI VA TARKIBIY TAHLILI

3.1. Xorijiy talabalar kontingentining umumiy tavsifi

Xorijiy talabalar kontingenti oliy ta'lim tizimining xalqarolashuv darajasini baholashda muhim ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. U mamlakatning xalqaro ta'lim makonidagi jozibadorligi, ta'lim xizmatlari eksporti salohiyati hamda xorijiy talabalarni jalb qilish samaradorligini aks ettiradi.

Shu nuqtayi nazardan, xorijiy talabalar kontingentining umumiy hajmi, tarkibi va davlatlar kesimidagi taqsimotini tahlil qilish milliy oliy ta'lim tizimida xalqarolashuv jarayonlarining asosiy tendensiyalarini baholash imkonini beradi.

2025-yil holatiga oliy ta'lim tashkilotlarida **24 647 nafar xorijiy talaba** tahsil olmoqda. Ularning barchasi davlatlar guruhleri (T_1 , T_2 va T_3) bo'yicha tasniflangan.


Davlatlar guruhleri bo'yicha tahlil natijalariga ko'ra, xorijiy talabalarining **16 175 nafari** (65,6 foiz) boshqa davlatlar fuqarolari (T_3 guruhi)ga to'g'ri keladi. **7 323 nafar** (29,7 foiz) talaba Markaziy Osiyo davlatlari fuqarolari (T_2 guruhi), **1 149 nafar** (4,7 foiz) esa Jahon banki tasnifiga muvofiq yuqori daromadli davlatlar (T_1 guruhi) fuqarolarini tashkil etadi.

Tahlil natijalari xorijiy talabalar kontingenti asosan T_3 va T_2 davlatlar guruhleri hisobiga shakllanayotganini ko'rsatadi.

Xususan, T_3 guruhining ustunligi Janubiy Osiyo mamlakatlaridan, ayniqsa, tibbiyot ta'lim yo'nalishlari bo'yicha oliy ta'lim tashkilotlariga bo'lgan talabning yuqoriligi bilan izohlanadi.

T_2 guruhi ulushining salmoqli ekani esa Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan shakllangan ta'lim hamkorligi, geografik yaqinlik, tarixiy-madaniy aloqalar va talabalar akademik mobilligining yuqori darajasi bilan bog'liq.

T_1 guruhiga mansub yuqori daromadli davlatlardan kelgan talabalar ulushining nisbatan pastligi oliy ta'lim tashkilotlarining ushbu mamlakatlar ta'lim bozoridagi ishtirokini kengaytirish, xalqaro akademik nufuzini oshirish va ta'lim xizmatlarini diversifikatsiya qilish zarurligini ko'rsatadi.



1-rasm. Xorijiy talabalar kontingentining davlatlar guruhlari (T₁, T₂ va T₃) bo'yicha taqsimoti, 2025-yil (%)

Manba: "HEMIS" axborot tizimi ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

3.2. Xorijiy talabalarning fuqaroligi bo'yicha tahlil

Oliy ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan xorijiy talabalar kontingenti **50 dan ortiq davlat fuqarolaridan** shakllangan. Biroq, xorijiy talabalarning fuqaroligi bo'yicha tarkibi bir tekis emas: **asosiy ulush ayrim davlatlar** hissasiga to'g'ri keladi.

Xususan, eng katta qism **Hindiston** fuqarolariga to'g'ri kelib, ularning soni **13 060 nafarni** tashkil etadi. Bu xorijiy talabalar umumiy kontingentining yarmidan ortig'ini tashkil etadi.


Keyingi o'rinlarda **Turkmaniston** (4 884 nafar), **Pokiston** (1 165 nafar) va **Qozog'iston** (1 129 nafar) fuqarolari qayd etilgan.

Xorijiy talabalar tarkibida **Rossiya** (863 nafar), **Tojikiston** (740 nafar), **Qirg'iz Respublikasi** (571 nafar), **Xitoy** (564 nafar), **Misr** (482 nafar), **Ozarbayjon** (217 nafar), **Janubiy Koreya** (190 nafar), **Iordaniya** (157 nafar), **Afg'oniston** (147 nafar) va boshqa davlatlar fuqarolari ham mavjud.

Bu holat O'zbekiston oliy ta'lim tizimi xorijiy talabalarni jalb qilishda tobora kengroq xalqaro qamrovga ega bo'lib borayotganini ko'rsatadi.

Fuqarolik tarkibi tahlili xorijiy talabalar oqimi hozirgi bosqichda asosan **Janubiy Osiyo** hamda **Markaziy Osiyo** mamlakatlari hisobiga shakllanayotganini ko'rsatadi.

Hindiston fuqarolarining yuqori ulushi tibbiyot ta'limiga bo'lgan xalqaro talabning yuqoriligi bilan izohlanadi. **Turkmaniston, Qozog'iston, Qirg'iziston** va **Tojikiston** fuqarolarining salmoqli ishtiroki mintaqa mamlakatlari bilan ta'lim sohasidagi hamkorlik, geografik yaqinlik va akademik mobillikning barqaror rivojlanayotganini aks ettiradi.



2-rasm. Xorijiy talabalarning fuqaroligi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega davlatlar va toifalar taqsimoti, 2025-yil (nafar)

Manba: "HEMIS" axborot tizimi ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

3.3. Xorijiy talabalarning hududlar kesimida taqsimlanishi

Xorijiy talabalar kontingenti respublika hududlari kesimida bir tekis taqsimlanmagan. Jami **24 647 nafar** xorijiy talabaning **11 556 nafari**, ya'ni **46,9 foizi Toshkent shahrida** tahsil olmoqda. Bu xorijiy talabalar kontingentining qariyb yarmi poytaxtda jamlanganini ko'rsatadi.


Xorijiy talabalar soni bo'yicha keyingi yuqori ko'rsatkichlar **Samarqand viloyatida – 4 382 nafar, Buxoro viloyatida – 2 879 nafar** hamda **Farg'ona viloyatida – 1 809 nafar**ni tashkil etadi. Shuningdek, **Andijon viloyatida – 1 495 nafar, Xorazm viloyatida – 1 407 nafar** xorijiy talaba tahsil olmoqda.

Toshkent shahri, Samarqand, Buxoro, Farg'ona, Andijon va Xorazm viloyatlarida **23 528 nafar** xorijiy talaba tahsil olib, bu respublikadagi umumiy xorijiy talabalar kontingentining **95,5 foizini** tashkil etadi. Bu holat xorijiy

talabalar oqimi asosan ta'lim infratuzilmasi rivojlangan, yirik oliy ta'lim tashkilotlari joylashgan hamda tibbiyot va boshqa talab yuqori bo'lgan ta'lim yo'nalishlari mavjud hududlarda jamlanayotganini ko'rsatadi.

Qolgan hududlarda xorijiy talabalar ulushi nisbatan past. **Surxondaryo viloyatida 394 nafar, Toshkent viloyatida 183 nafar, Namangan viloyatida 176 nafar, Sirdaryo viloyatida 141 nafar, Navoiy viloyatida 114 nafar, Qashqadaryo viloyatida 72 nafar, Jizzax viloyatida 23 nafar, Qoraqalpog'iston Respublikasida 16 nafar** xorijiy talaba qayd etilgan.

Xorijiy talabalarni jalb qilish salohiyati respublika bo'yicha bir xil shakllanmagan. Ayniqsa, ayrim hududlarda xorijiy talabalar sonining pastligi **xalqaro ta'lim dasturlari, xorijiy tillardagi ta'lim yo'nalishlari, marketing va rekruting faoliyati** hamda **xorijiy talabalar uchun zarur akademik va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish** zarurligini ko'rsatadi.



3-rasm. Xorijiy talabalarining hududlar kesimida taqsimlanishi, 2025-yil (nafar)

Manba: "HEMIS" axborot tizimi ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

3.4. Xorijiy talabalar kontingentining oliy ta'lim tashkilotlari turlari va mulkchilik shakli bo'yicha tahlili

Xorijiy talabalar kontingentining oliy ta'lim tashkilotlari turlari va mulkchilik shakli kesimidagi tahlili ularning asosiy qismi **davlat oliy ta'lim tashkilotlarida** tahsil olayotganini ko'rsatadi.

Bunda **22 685 nafar** xorijiy talaba tahsil olib, bu jami xorijiy talabalarining **92 foizini** tashkil etadi.


Nodavlat oliy ta'lim tashkilotlarida 1 468 nafar (6,0 foiz), xorijiy universitetlar filiallarida esa 494 nafar (2,0 foiz) xorijiy talaba tahsil olmoqda.

Davlat oliy ta'lim tashkilotlarining xorijiy talabalarni jalb qilishda yetakchi o'rinni egallayotgani, avvalo, ularning respublika oliy ta'lim tizimidagi yuqori ulushi, ta'lim yo'nalishlarining keng qamrovliligi, ko'p yillik ta'lim an'analari va xorijiy talabalarni qabul qilish bo'yicha shakllangan tajribasi bilan izohlanadi.

Shuningdek, xorijiy talabalar talabi yuqori bo'lgan tibbiyot, texnika va boshqa ta'lim yo'nalishlarining asosiy qismi davlat oliy ta'lim tashkilotlarida jamlanganligi ham mazkur holatga ta'sir ko'rsatadi.

Ayni paytda, nodavlat oliy ta'lim tashkilotlari hamda xorijiy universitetlar filiallarida tahsil olayotgan xorijiy talabalar ulushi nisbatan past bo'lsa-da, mazkur ko'rsatkichlar xorijiy talabalarni qabul qilish jarayonida davlat oliy ta'lim tashkilotlari bilan bir qatorda nodavlat oliy ta'lim tashkilotlari va xorijiy universitetlar filiallari ham ishtirok etayotganini ko'rsatadi.

Bu esa mamlakat oliy ta'lim tizimida xorijiy talabalar uchun ta'lim imkoniyatlari turli institutsional shakllarda ham shakllanib borayotganini anglatadi.



4-rasm. Xorijiy talabalarining oliy ta'lim tashkilotlari mulkchilik shakli bo'yicha taqsimoti, 2025-yil (%)

Manba: "HEMIS" axborot tizimi ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

3.5. Xorijiy talabalarining yosh va gender tarkibi tahlili

Xorijiy talabalarining yosh tarkibi tahlili **“HEMIS”** axborot tizimida yoshga oid ma’lumotlari to’liq shakllangan **24 647 ta yozuv** asosida amalga oshirildi.


Bunga ko’ra, xorijiy talabalarining asosiy qismi **21–25 yosh** va **17–20 yosh** guruhlariga to’g’ri keladi. Xususan, **21–25 yosh** toifasida **12 691 nafar** (51,5 foiz), **17–20 yosh** toifasida esa **8 787 nafar** (35,7 foiz) xorijiy talaba qayd etilgan.

Bu ikki yosh guruhi xorijiy talabalarining **87,2 foizini** tashkil etib, asosan bakalavriat va magistraturada tahsil olayotgan an’anaviy talabalarga to’g’ri keladi.

Qolgan yosh toifalarida **26–30 yosh** guruhiga **2 000 nafar** (8,1 foiz), **31–40 yosh** guruhiga **916 nafar** (3,7 foiz), **41–50 yosh** guruhiga **204 nafar** (0,8 foiz) va **51–70 yosh** guruhiga **49 nafar** (0,2 foiz) xorijiy talaba to’g’ri keladi. Bu ko’rsatkichlar 30 yoshdan yuqori bo’lgan xorijiy talabalar ulushi nisbatan past ekanini ko’rsatadi.

Yosh guruhlari kesimida gender tarkibi ham tahlil qilindi. **17–20 yosh** toifasida **4 942 nafar ayol** va **3 845 nafar erkak**, **21–25 yosh** toifasida **5 697 nafar ayol** va **6 994 nafar erkak**, **26–30 yosh** toifasida **810 nafar ayol** va **1 190 nafar erkak**, **31–40 yosh** toifasida **515 nafar ayol** va **401 nafar erkak**, **41–50 yosh** toifasida **122 nafar ayol** va **82 nafar erkak**, **51–70 yosh** toifasida esa **15 nafar ayol** va **34 nafar erkak** tahsil olmoqda. Yosh guruhlari kesimida ayollar va erkaklar ulushida ayrim farqlar kuzatilsa-da, umumiy hisobda gender tarkibi nisbatan muvozanatli shakllangan.

Umuman olganda, xorijiy talabalarining gender tarkibida **12 101 nafar** (49,1 foiz) ayollar va **12 546 nafar** (50,9 foiz) erkaklar qayd etilgan. Bu xorijiy talabalar kontingentida sezilarli gender nomutanosibligi mavjud emasligini ko’rsatadi.



5-rasm. Xorijiy talabalarning yosh va gender tarkibi bo'yicha taqsimoti, 2025-yil (nafar)

3.6. Xorijiy talabalar kontingenti bo'yicha asosiy xulosalar

Birinchidan, 2025-yil holatiga ko'ra, oliy ta'lim tashkilotlarida 24 647 nafar xorijiy talaba tahsil olayotgani mamlakat oliy ta'lim tizimi xalqarolashuvining joriy ko'lamini hamda oliy ta'lim tashkilotlarining xorijiy talabalar uchun muayyan jozibadorligini ko'rsatadi.

Ushbu ko'rsatkich O'zbekistonning xalqaro ta'lim makonida xorijiy talabalar uchun muayyan jozibadorlikka ega bo'lib borayotganini tasdiqlaydi.

Ikkinchidan, xorijiy talabalar kontingenti tarkibida T_3 davlatlar guruhiga mansub 16 175 nafar talabaning ustunlik qilishi va T_2 guruhiga kiruvchi 7 323 nafar talabaning salmoqli ulushi xorijiy talabalar oqimi asosan Janubiy Osiyo va Markaziy Osiyo mamlakatlari hisobiga shakllanayotganini ko'rsatadi. Shuningdek T_1 guruhiga mansub 1 149 nafar talabaning mavjudligi oliy ta'lim tashkilotlarining yuqori daromadli davlatlar bilan ham ta'lim aloqalari mavjudligini anglatadi.

Uchinchidan, xorijiy talabalarning hududlar kesimidagi taqsimoti bir tekis emas. Xususan, 11 556 nafar xorijiy talabaning Toshkent shahrida tahsil olayotgani poytaxtning mamlakatdagi asosiy ta'lim markazi sifatidagi o'rnini yana bir bor tasdiqlaydi.

Shuningdek, Samarqand, Buxoro va Farg'ona viloyatlarida ham xorijiy talabalar kontingentining nisbatan yuqori darajada jamlangani ushbu

hududlardagi yirik oliy ta'lim tashkilotlari, ta'lim infratuzilmasi hamda, ayniqsa, tibbiyot yo'nalishidagi ta'lim dasturlariga bo'lgan talab bilan izohlanadi.

To'rtinchidan, 22 685 nafar (92,04 foiz) xorijiy talaba davlat oliy ta'lim tashkilotlarida tahsil olmoqda. Bu davlat oliy ta'lim tashkilotlarining xorijiy talabalarni qabul qilish bo'yicha yetakchi o'rinni egallab turganini hamda ularda ta'lim, ilmiy va tashkiliy imkoniyatlar nisbatan yuqori darajada shakllanganini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, nodavlat oliy ta'lim tashkilotlari va xorijiy universitetlar filiallarida ham xorijiy talabalar tahsil olayotgani mamlakatda ta'lim xizmatlari ko'rsatuvchi muassasalar tarkibi diversifikatsiya qilinayotganini anglatadi.

Beshinchidan, xorijiy talabalarning **87,2 foizi 17–25 yosh** oralig'ida bo'lib, ularning asosiy qismi bakalavriat va magistratura bosqichlarida tahsil olayotgan an'anaviy talabalar yoshiga to'g'ri keladi. Shuningdek, gender tarkibida **12 101 nafar ayollar** (49,1 foiz) va **12 546 nafar erkaklar** (50,9 foiz) qayd etilgani xorijiy talabalar kontingentida sezilarli gender nomutanosibliigi mavjud emasligini ko'rsatadi.

III bob natijalari O'zbekiston oliy ta'lim tizimi xorijiy talabalarni jalb qilish bo'yicha muayyan salohiyatga ega ekanini ko'rsatadi.

Biroq xorijiy talabalar oqimining ayrim davlatlar, muayyan hududlar va asosan davlat oliy ta'lim tashkilotlari hissasiga yuqori darajada jamlangani xalqarolashuv jarayonlarini yanada diversifikatsiya qilish, hududiy imkoniyatlarni kengaytirish hamda nodavlat va xorijiy oliy ta'lim tashkilotlari filiallarining xalqaro talabalarni jalb qilishdagi ishtirokini kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi.

Xalqaro qiyosiy tahlil ham ushbu xulosani tasdiqlaydi. OECDning 2025-yilgi **Education at a Glance³** hisobotida xorijiy yoki xalqaro mobil talabalar ulushi oliy ta'lim tizimlarining xalqarolashuv darajasini baholashda muhim ko'rsatkichlardan biri sifatida keltirilgan. Mazkur hisobotga ko'ra, 2023-yilda OECD davlatlarida xorijiy yoki xalqaro mobil talabalar oliy ta'limdagi umumiy kontingentning o'rtacha **7,4 foizini** tashkil etgan.

³ OECD. *Education at a Glance 2025: OECD Indicators. Chapter B4. How do student profiles, study choices and mobility trends shape tertiary education? Table B4.3.*
URL: https://www.oecd.org/en/publications/education-at-a-glance-2025_1c0d9c79-en/full-report/how-do-student-profiles-study-choices-and-mobility-trends-shape-tertiary-education_97e1e2bd.html (20.07.2026)

Qiyoslash uchun, milliy reyting doirasida tahlil qilingan oliy ta'lim tashkilotlari umumiy talabalar kontingentiga nisbatan O'zbekistondagi xorijiy talabalar ulushi taxminan **1,54 foizni** tashkil etadi. Bu esa O'zbekiston oliy ta'lim tizimida xalqarolashuv jarayonlari rivojlanayotganini, biroq **xorijiy talabalar ulushini oshirish bo'yicha hali sezilarli o'sish salohiyati mavjudligini** ko'rsatadi.

IV. OLIY TA'LIM TASHKILOTLARI TOIFALARI KESIMIDA XORIJIY TALABALAR KONTINGENTINING QIYOSIY TAHLILI

4.1. Oliy ta'lim tashkilotlari toifalari bo'yicha umumiy tavsif


Oliy ta'lim tashkilotlari toifalari kesimidagi qiyosiy tahlil xorijiy talabalar kontingentining shakllanishida sezilarli farqlar mavjudligini ko'rsatadi. Xususan, xorijiy talabalarining ham mutlaq soni, ham ularning umumiy talabalar kontingentidagi ulushi turli toifadagi oliy ta'lim tashkilotlarida bir xil emas.

Tahlilga ko'ra, **tibbiyot toifasidagi oliy ta'lim tashkilotlari** xorijiy talabalarining mutlaq soni (15 656 nafar) va ularning umumiy talabalar kontingentidagi ulushi (14,32 foiz) bo'yicha yetakchi hisoblanadi. Xalqaro reytinglarning **TOP-1000 taligiga kiruvchi mahalliy universitetlar** ham xorijiy talabalar soni (4 846 nafar) va ularning umumiy talabalar kontingentidagi ulushi (8,01 foiz) bo'yicha boshqa toifalarga nisbatan yuqori ko'rsatkichlarga ega.

Ayni paytda, ijtimoiy-gumanitar, amaliy va ijod (sport) toifalaridagi oliy ta'lim tashkilotlarida xorijiy talabalarining mutlaq soni va ularning umumiy talabalar kontingentidagi ulushi nisbatan pastligi kuzatiladi.

Xususan, ijtimoiy-gumanitar toifada **3 211 nafar** xorijiy talaba tahsil olib, ularning ulushi **0,32 foizni**, amaliy toifada **680 nafar** xorijiy talaba tahsil olib, ularning ulushi **0,26 foizni**, ijod (sport) toifasida esa **70 nafar** xorijiy talaba tahsil olib, ularning ulushi **0,32 foizni** tashkil etadi. Bu holat toifalar o'rtasidagi farqlar oliy ta'lim tashkilotlarining ixtisoslashuvi, ta'lim yo'nalishlari va tashqi talab xususiyatlari bilan bog'liq bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi.

Izoh: mazkur bobdagi qiyosiy tahlil oliy ta'lim tashkilotlarining milliy reyting metodologiyasida belgilangan toifalari kesimida amalga oshirilgan. Respublika bo'yicha xorijiy talabalarining umumiy soni **24 647** nafarni tashkil etadi. Shundan milliy reyting toifalari doirasida qamrab olingan oliy ta'lim tashkilotlarida **24 463** nafar xorijiy talaba tahsil olmoqda. Qolgan **184 nafar** xorijiy talaba milliy reytingda ishtirok etmaydigan oliy ta'lim tashkilotlari hissasiga to'g'ri keladi.



6-rasm. Oliy ta'lim tashkilotlari toifalari kesimida xorijiy talabalarning soni va umumiy talabalar kontingentidagi ulushi, 2025-yil

Manba: "HEMIS" axborot tizimi ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari

4.2. Xorijiy talabalar soni bo'yicha qiyosiy tahlil


Oliy ta'lim tashkilotlari toifalari kesimida xorijiy talabalarning mutlaq soni bo'yicha tahlil ularning taqsimlanishida sezilarli farqlar mavjudligini ko'rsatadi.

Tahlilga ko'ra, xorijiy talabalarning eng katta qismi **tibbiyot toifasidagi oliy ta'lim tashkilotlari hissasiga to'g'ri keladi**. Mazkur toifada **15 656 nafar** xorijiy talaba tahsil olmoqda. Ushbu yuqori ko'rsatkich, avvalo, tibbiyot ta'limiga bo'lgan xalqaro talabning yuqoriligi hamda, ayniqsa, **Janubiy Osiyo mamlakatlaridan** kelgan talabalar sonining yuqoriligi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Mutlaq son bo'yicha keyingi o'rinni xalqaro reytinglarning TOP-1000 taligiga kiruvchi mahalliy universitetlar egallab, ularda **4 846 nafar** xorijiy talaba tahsil olmoqda. Bu universitetlarning xalqaro akademik nufuzi, ilmiy salohiyati hamda xorijiy talabalar uchun jozibador ta'lim muhitini shakllantira olganini ko'rsatadi.

Ijtimoiy-gumanitar toifadagi oliy ta'lim tashkilotlarida **3 211 nafar** xorijiy talaba tahsil olmoqda. Mazkur ko'rsatkich tibbiyot va TOP-1000 universitetlariga nisbatan past bo'lsa-da, xorijiy talabalarni qabul qilishda ushbu toifa ham muayyan o'ringa ega ekanini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, amaliy toifadagi oliy ta'lim tashkilotlarida **680 nafar**, ijod (sport) toifadagi oliy ta'lim tashkilotlarida esa **70 nafar** xorijiy talaba tahsil olmoqda. Bu mazkur toifalarda xorijiy talabalarni jalb qilish ko'lamini boshqa toifalarga nisbatan cheklanganligini ko'rsatadi.



7-rasm. Oliy ta'lim tashkilotlari toifalari kesimida xorijiy talabalarning mutlaq soni, 2025-yil (nafar)

Manba: "HEMIS" axborot tizimi ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

4.3. Xorijiy talabalar ulushi bo'yicha qiyosiy tahlil

Xorijiy talabalarning umumiy talabalar kontingentidagi ulushi bo'yicha qiyosiy tahlil oliy ta'lim tashkilotlarining xalqarolashuv darajasini nisbiy ko'rsatkichlar asosida baholash imkonini beradi.

Mazkur ko'rsatkich xorijiy talabalarning mutlaq sonidan tashqari, ularning har bir toifadagi umumiy talabalar kontingentida tutgan o'rnini ham aks ettiradi.

Tahlil natijalariga ko'ra, tibbiyot toifasidagi oliy ta'lim tashkilotlari xorijiy talabalar ulushi bo'yicha yetakchilik qilib, mazkur ko'rsatkich **14,32 foizni** tashkil etadi. Bu boshqa barcha toifalarga nisbatan sezilarli yuqori ko'rsatkich bo'lib, tibbiyot toifasida xorijiy talabalarning umumiy talabalar kontingentidagi ulushi ancha yuqori ekanini ko'rsatadi.

TOP-1000 toifasiga kiruvchi mahalliy universitetlarda xorijiy talabalar ulushi **8,01 foizni** tashkil etadi. Bu mazkur universitetlar xorijiy talabalarni

jalb qilish bo'yicha boshqa aksariyat toifalarga nisbatan yuqori natija qayd etganini ko'rsatadi.

Qolgan toifalarda xorijiy talabalar ulushi sezilarli darajada past ekani kuzatiladi. Xususan, ijod (sport) toifasidagi oliy ta'lim tashkilotlarida ushbu ko'rsatkich **0,32 foizni**, ijtimoiy-gumanitar toifada **0,32 foizni**, amaliy toifada esa **0,26 foizni** tashkil etadi. Bu holat mazkur toifalarda xorijiy talabalarni jalb qilish darajasi cheklanganligini hamda ularning umumiy talabalar kontingentidagi salmog'i past darajada shakllanganini ko'rsatadi.

Umuman olganda, xorijiy talabalar ulushi bo'yicha qiyosiy tahlil oliy ta'lim tashkilotlari toifalari o'rtasida sezilarli tafovutlar mavjudligini ko'rsatadi. Tibbiyot va TOP-1000 toifasiga kiruvchi mahalliy universitetlarda xorijiy talabalar ulushi nisbatan yuqori bo'lib, ushbu toifalarning xalqaro ta'lim bozoridagi jozibadorligi va xorijiy talabalarni jalb qilish salohiyati yuqoriroq ekanini anglatadi. Aksincha, ijtimoiy-gumanitar, amaliy hamda ijod (sport) toifalarida ushbu ko'rsatkich past darajada saqlanib qolmoqda. Bu mazkur toifalarda xalqarolashuv jarayonlarini kengaytirish va xorijiy talabalarni jalb qilish mexanizmlarini kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi.

4.4. Davlatlar guruhleri bo'yicha qiyosiy tahlil

Toifalari kesimida xorijiy talabalarining davlatlar guruhleri bo'yicha tarkibini tahlil qilish ularni jalb etish geografiyasi har bir toifada turlicha shakllanganini ko'rsatadi. Bu farqlar, avvalo, oliy ta'lim tashkilotlarining ixtisoslashuvi, ta'lim dasturlari yo'nalishi, xalqaro akademik nufuzi hamda xorijiy talabalar oqimining asosiy manbalari bilan bog'liq.

Tahlilga ko'ra, TOP-1000 toifasiga kiruvchi universitetlarda xorijiy talabalarining asosiy qismi **Markaziy Osiyo davlatlari** fuqarolari (T_2 guruhi) hissasiga to'g'ri keladi. Bu toifada jami **4 846 nafar** xorijiy talabaning **4 745 nafari** T_2 guruhiga, **86 nafari** T_3 guruhiga, **15 nafari** esa T_1 guruhiga mansub. Bu ushbu universitetlarning mintaqada yuqori jozibadorligini ko'rsatadi.

Amaliy toifadagi oliy ta'lim tashkilotlarida xorijiy talabalarining davlatlar guruhleri bo'yicha taqsimotida **T_2 va T_3 guruhleri ko'rsatkichlari bir-biriga yaqin**, T_1 guruhi ko'rsatkichi esa nisbatan past. Ushbu toifadagi 680 nafar xorijiy talabaning **268 nafari** T_2 guruhiga, **261 nafari** T_3 guruhiga va **151 nafari** T_1 guruhiga mansub. Mazkur tarkib amaliy toifada xorijiy

talabalarning barcha uch davlatlar guruhi bo'yicha shakllanganini, biroq **asosiy ulush T_2 va T_3 guruhlari hissasiga to'g'ri kelishini** ko'rsatadi.

Tibbiyot toifasidagi oliy ta'lim tashkilotlarida xorijiy talabalarning mutlaq ko'pchiligi **T_3 guruhi** hissasiga to'g'ri keladi. Xususan, mazkur toifadagi jami **15 656 nafar** xorijiy talabaning **14 070 nafari** T_3 guruhiga, **1 145 nafari** T_2 guruhiga, **441 nafari** esa T_1 guruhiga mansub. Bu tibbiyot ta'limiga bo'lgan xalqaro talab asosan Janubiy Osiyo mamlakatlari hisobiga shakllanayotganini ko'rsatadi.

Ijtimoiy-gumanitar toifadagi oliy ta'lim tashkilotlarida ham xorijiy talabalarning asosiy qismi T_3 guruhiga to'g'ri keladi. Mazkur toifada jami **3 211 nafar** xorijiy talabaning **1 659 nafari** T_3 guruhiga, **1 058 nafari** T_2 guruhiga, **494 nafari** esa T_1 guruhiga mansub. Bu ushbu yo'nalishda xorijiy talabalar tarkibi nisbatan diversifikatsiyalangan bo'lsa-da, T_3 guruhining ustunligi saqlanib qolayotganini ko'rsatadi.

Ijod (sport) toifasidagi oliy ta'lim tashkilotlarida xorijiy talabalar soni nisbatan kam bo'lib, jami **70 nafarni** tashkil etadi. Ularning **27 nafari** T_2 guruhiga, **25 nafari** T_3 guruhiga, **18 nafari** esa T_1 guruhiga mansub. Bu toifada xorijiy talabalar soni kamligi sababli davlatlar guruhlari o'rtasidagi farqlar umumiy tendensiya sifatida emas, balki cheklangan kontingent doirasida talqin qilinadi.

Umuman olganda, davlatlar guruhlari bo'yicha qiyosiy tahlil xorijiy talabalarni jalb qilish geografiyasi oliy ta'lim tashkilotlari toifalariga qarab sezilarli darajada farqlanishini ko'rsatadi.

Xususan, TOP-1000 toifasida **Markaziy Osiyo davlatlari** fuqarolari ustunlik qilsa, tibbiyot toifasida T_3 guruhiga mansub talabalar mutlaq yetakchilik qiladi. Amaliy hamda ijtimoiy-gumanitar toifalarda esa xorijiy talabalar tarkibi nisbatan aralash shakllangan.

Oliy ta'lim tashkilotlari toifalari bo'yicha xorijiy talabalarning davlatlar guruhlari kesimidagi ko'rsatkichlari **1-jadvalda umumlashtirilgan**. Mazkur jadval T_1 , T_2 va T_3 guruhlari mansub talabalar soni hamda ularning toifalar bo'yicha taqsimlanishidagi farqlarni qiyosiy baholash imkonini beradi.

Oliy ta'lim tashkiloti toifasi	T ₁	T ₂	T ₃	Xorijiy talabalar soni
TOP–1000 universitetlari	15	4 745	86	4 846
Amaliy	151	268	261	680
Tibbiyot	441	1 145	14 070	15 656
Ijtimoiy-gumanitar	494	1 058	1 659	3 211
Ijodiy (sport)	18	27	25	70

1-jadval. Oliy ta'lim tashkilotlari toifalari kesimida xorijiy talabalarning davlatlar guruhlari bo'yicha tarkibi, 2025-yil (nafar)

Manba: "HEMIS" axborot tizimi ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

Toifalar kesimidagi qiyosiy tahlil xorijiy talabalarni jalb qilish natijalari ta'lim yo'nalishi va tashkilotlarning ixtisoslashuviga qarab sezilarli farqlanishini ko'rsatadi.

Tibbiyot toifasidagi oliy ta'lim tashkilotlari yetakchi mavqega ega bo'lib, ularda **15 656 nafar** xorijiy talaba tahsil olmoqda. Ularning umumiy talabalar kontingentidagi ulushi **14,32 foizni** tashkil etadi. TOP–1000 toifasidagi universitetlarda esa **4 846 nafar** xorijiy talaba tahsil olib, mazkur ko'rsatkich **8,01 foizga** teng. Bu natijalar ushbu ikki toifaning xorijiy talabalar uchun nisbatan yuqori jozibadorligini ko'rsatadi.

Ijtimoiy-gumanitar toifada **3 211 nafar**, amaliy toifada **680 nafar**, ijod (sport) toifasida esa **70 nafar** xorijiy talaba tahsil olmoqda. Mazkur toifalarda xorijiy talabalar soni va ularning umumiy kontingentdagi ulushi nisbatan past bo'lib, **xorijiy talabalarni jalb qilish imkoniyatlarini kengaytirish zarurligini** ko'rsatadi.

Xorijiy talabalarning davlatlar guruhlari bo'yicha tarkibi ham toifalar kesimida farqlanadi. TOP–1000 toifasida T₂ guruhi, tibbiyot toifasida esa T₃ guruhi yaqqol ustunlik qiladi. Amaliy toifada T₂ va T₃ guruhlari ko'rsatkichlari bir-biriga yaqin bo'lsa, T₁ guruhiga mansub talabalar soni nisbatan past. Ijtimoiy-gumanitar toifada xorijiy talabalar kontingenti bir nechta davlatlar guruhi hisobiga shakllangan.

Qayd etilgan farqlar xorijiy talabalarni jalb qilish choralarini **oliy ta'lim tashkilotlarining ixtisoslashuvi, ta'lim dasturlari va maqsadli xorijiy bozorlar xususiyatlarini hisobga olgan holda** belgilash zarurligini ko'rsatadi. Ijod (sport) toifasida xorijiy talabalar soni kamligi sababli ushbu toifa natijalarini ehtiyotkorlik bilan talqin qilish maqsadga muvofiq.

V. XORIJIY TALABALARNI JALB QILISHDAGI TENDENSIYALAR, NOMUTANOSIBLIKLAR VA RIVOJLANISH IMKONIYATLARI

Mazkur bobda xorijiy talabalar kontingentining umumiy tarkibi, hududiy va institutsional taqsimoti, ta'lim yo'nalishlari kesimidagi konsentratsiya holati hamda xorijiy talabalarni jalb qilish bo'yicha mavjud rivojlanish imkoniyatlari umumlashtirilgan holda tahlil qilinadi. Tahlil xorijiy talabalar oqimi mamlakat oliy ta'lim tizimida shakllangan muayyan ixtisoslashuv, hududiy markazlashuv va ta'lim dasturlarining xalqaro jozibadorligi bilan bevosita bog'liqligini ko'rsatadi.

5.1. Xorijiy talabalar oqimining asosiy tendensiyalari

Oliy ta'lim tashkilotlarida **24 647 nafar** xorijiy talaba tahsil olmoqda. Ushbu ko'rsatkich tizimda xorijiy talabalar kontingenti shakllanganini va xalqarolashuv jarayonlari amaliy bosqichda rivojlanayotganini ko'rsatadi.

Davlatlar guruhlari bo'yicha tahlil xorijiy talabalar oqimi asosan T_3 va T_2 guruhlari hisobiga shakllanayotganini ko'rsatadi. Xususan, **T_3 guruhiga 16 175 nafar, T_2 guruhiga 7 323 nafar, T_1 guruhiga esa 1 149 nafar** xorijiy talaba to'g'ri keladi. T_2 guruhi **Markaziy Osiyo davlatlarini** qamrab olsa, T_3 guruhi tarkibidagi talabalarning asosiy qismi **Hindiston** va **Pokiston** fuqarolari hisobiga shakllangan.

Xorijiy talabalar fuqaroligi ham ushbu tendensiyani tasdiqlaydi. Xususan, **Hindiston** fuqarolari xorijiy talabalar tarkibida eng yuqori ulushga ega bo'lib, ularning soni **13 060 nafarni** tashkil etadi. **Turkmaniston, Pokiston, Tojikiston, Qozog'iston, Qirg'iz Respublikasi** va boshqa davlatlar fuqarolarining mavjudligi tizimning mintaqaviy va xalqaro qamrovi kengayotganini ko'rsatadi.

Bu xorijiy talabalar oqimida ikki asosiy tendensiya shakllanganini ko'rsatadi. Birinchidan, **Markaziy Osiyo mamlakatlari** bilan geografik yaqinlik, madaniy aloqalar va ta'lim hamkorligi asosida barqaror talabalar oqimi mavjud. Ikkinchidan, tibbiyot ta'limiga bo'lgan yuqori talab hisobiga **Janubiy Osiyo mamlakatlaridan** kelayotgan talabalar xorijiy kontingentning muhim qismini tashkil etmoqda.

5.2. Hududiy va oliy ta'lim tashkilotlari kesimidagi nomutanosibliklar

Xorijiy talabalar kontingentining hududlar kesimidagi taqsimoti mamlakat oliy ta'lim tizimida xorijiy talabalarni jalb qilish imkoniyatlari bir xil

shakllanmaganini ko'rsatadi. Tahlilga ko'ra, xorijiy talabalarning asosiy qismi ayrim hududlarda, birinchi navbatda, Toshkent shahri va yirik ta'lim markazlari joylashgan viloyatlarda jamlangan.

2025-yil holatiga ko'ra, xorijiy talabalarning eng katta qismi **Toshkent shahrida – 11 556 nafar** talabani tashkil etadi. Keyingi o'rinlarda **Samarqand viloyati – 4 382 nafar, Buxoro viloyati – 2 879 nafar, Farg'ona viloyati – 1 809 nafar, Andijon viloyati – 1 495 nafar** va **Xorazm viloyati – 1 407 nafar** xorijiy talaba bilan ajralib turadi.

Bu hududlarda xorijiy talabalar kontingentining yuqori darajada shakllangani yirik oliy ta'lim tashkilotlari, tibbiyot ta'limiga ixtisoslashgan muassasalar, xalqaro talab yuqori bo'lgan ta'lim dasturlari va xorijiy talabalar bilan ishlash bo'yicha shakllangan tashkiliy tajriba mavjudligini ko'rsatadi.

Ayni paytda, ayrim hududlarda xorijiy talabalar soni juda past darajada. Xususan, **Qoraqalpog'iston Respublikasida 16 nafar, Jizzax viloyatida 23 nafar, Qashqadaryo viloyatida 72 nafar, Navoiy viloyatida 114 nafar** va **Sirdaryo viloyatida 141 nafar** xorijiy talaba qayd etilgan.

Bu mazkur hududlarda xorijiy talabalarni jalb qilish salohiyati to'liq ishga solinmaganini, xalqaro ta'lim dasturlari, xorijiy tillarda o'qitish imkoniyatlari va talabalarga xizmat ko'rsatish infratuzilmasini yanada rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi.

Oliy ta'lim tashkilotlari kesimida ham xorijiy talabalarni jalb qilishda nomutanosibliklar mavjud. Xorijiy talabalarning asosiy qismi **davlat oliy ta'lim tashkilotlarida** tahsil olmoqda. Davlat oliy ta'lim tashkilotlarida **22 685 nafar** xorijiy talaba tahsil olib, bu jami xorijiy talabalarning **92,04 foizini** tashkil etadi. **Nodavlat oliy ta'lim tashkilotlarida 1 468 nafar** (5,96 foiz), **xorijiy oliy ta'lim tashkilotlari filiallarida esa 494 nafar** (2,00 foiz) xorijiy talaba tahsil olmoqda.

Mazkur taqsimot davlat oliy ta'lim tashkilotlarining xorijiy talabalarni jalb qilishda yetakchi o'rin tutayotganini ko'rsatadi. Bu ularning ta'lim yo'nalishlari qamrovi kengligi, qabul infratuzilmasi, xorijiy talabalar bilan ishlash tajribasi va yuqori talabga ega ta'lim dasturlarida jamlangani bilan bog'liq. Shuningdek, nodavlat oliy ta'lim tashkilotlari va xorijiy universitetlar filiallarida xorijiy talabalar ulushining nisbatan pastligi ularda xalqaro talabalarni jalb qilish imkoniyatlarini kengaytirish uchun qo'shimcha chora-tadbirlar zarurligini ko'rsatadi.

Umuman olganda, hududiy va institutsional taqsimot xorijiy talabalar kontingenti mamlakat bo'yicha bir tekis shakllanmaganini ko'rsatadi. Xorijiy talabalar asosan **poytaxt, yirik ta'lim markazlari va tibbiyot ta'limi rivojlangan hududlarda** jamlangan bo'lib, boshqa hududlar va ayrim oliy ta'lim tashkilotlarida xalqarolashuv salohiyatidan to'liq foydalanilmayotgani kuzatiladi.

5.3. Ta'lim yo'nalishlari bo'yicha konsentratsiya holati

Xorijiy talabalar kontingentining oliy ta'lim tashkilotlari toifalari kesimidagi tahlili ularning ayrim ta'lim yo'nalishlarida yuqori darajada jamlanganini ko'rsatadi. Bu xorijiy talabalarni jalb qilishda ta'lim dasturlarining ixtisoslashuvi, xalqaro talab, kasbiy yo'nalishning mehnat bozoridagi ahamiyati va oliy ta'lim tashkilotlarining xorijiy talabalar bilan ishlash tajribasi muhim omil ekanini tasdiqlaydi.

Milliy reytingda ishtirok etuvchi oliy ta'lim tashkilotlari toifalari bo'yicha tahliliga ko'ra, tibbiyot toifasidagi oliy ta'lim tashkilotlari xorijiy talabalarni jalb qilishda yaqqol yetakchi hisoblanadi. Mazkur toifada **15 656 nafar** xorijiy talaba tahsil olib, ular talabalar kontingentining **14,32 foizini** tashkil etadi. Bu tibbiyot ta'limi tizimida xorijiy talabalar uchun eng jozibador yo'nalishlardan biri ekanini ko'rsatadi.

Tibbiyot yo'nalishida xorijiy talabalar soni va ulushining yuqoriligi, birinchi navbatda, Janubiy Osiyo mamlakatlaridan kelgan talabalar sonining yuqoriligi bilan bog'liq. Ayniqsa, **Hindiston** va **Pokiston** fuqarolari hisobiga shakllanayotgan talabalar oqimi mazkur yo'nalishda xorijiy kontingentning asosiy manbalari hisoblanadi.

Shuningdek, tibbiyot oliy ta'lim tashkilotlarida xorijiy talabalar bilan ishlash bo'yicha institutsional tajriba va qabul jarayonlari nisbatan shakllangani ham ushbu konsentratsiyani kuchaytiruvchi omillardan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Xalqaro reytinglarning TOP-1000 taligiga kiruvchi mahalliy universitetlarda ham xorijiy talabalar soni nisbatan yuqori bo'lib, mazkur toifada **4 846 nafar** xorijiy talaba tahsil olmoqda. Ularning umumiy talabalar kontingentidagi ulushi **8,01 foizni** tashkil etadi.

Ayni paytda, amaliy, ijtimoiy-gumanitar va ijod (sport) toifalarida xorijiy talabalar ulushi sezilarli darajada past. Amaliy toifadagi oliy ta'lim tashkilotlarida xorijiy talabalar soni **680 nafarni**, ularning umumiy talabalar

kontingentidagi ulushi **0,26 foizni** tashkil etadi. Ijtimoiy-gumanitar toifada **3 211 nafar** xorijiy talaba tahsil olib, mazkur ko'rsatkich **0,32 foizga** teng. Ijod (sport) toifasida esa xorijiy talabalar soni **70 nafarni** tashkil etib, ularning ulushi **0,32 foizni** tashkil etadi.

Shu nuqtayi nazardan, xorijiy talabalarni jalb qilish siyosatida tibbiyot ta'limida shakllangan tajribani boshqa ta'lim yo'nalishlariga moslashtirish, ayniqsa **muhandislik, raqamli texnologiyalar, iqtisodiyot, pedagogika** va **amaliy fanlar** yo'nalishlarida xalqaro ta'lim dasturlarini rivojlantirish muhim.

5.4. Xorijiy talabalarni jalb qilish imkoniyatlari

Tahlil natijalari mamlakat oliy ta'lim tizimida xorijiy talabalar kontingentini yanada kengaytirish uchun bir qator amaliy imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatadi. Xorijiy talabalar soni shakllangan bo'lsa-da, ularning asosiy qismi ayrim ta'lim yo'nalishlari, hududlar va oliy ta'lim tashkilotlarida jamlangan. Bu esa xalqarolashuv salohiyatidan barcha oliy ta'lim tashkilotlari kesimida bir xil darajada foydalanilmayotganini anglatadi.

Birinchi navbatda, xorijiy talabalarni jalb qilishda tibbiyot ta'limida shakllangan tajribani muhandislik, raqamli texnologiyalar, iqtisodiyot, pedagogika, agrar, amaliy fanlar va boshqa yo'nalishlarga moslashtirish xorijiy talabalar geografiyasini diversifikatsiya qilishga xizmat qiladi.

Bu, o'z navbatida, xorijiy talabalar kontingentining faqat ayrim yo'nalishlar hisobiga emas, balki kengroq ta'lim sohalari bo'yicha shakllanishiga zamin yaratadi.

Ikkinchidan, xorijiy tillarda, ayniqsa **ingliz tilida tashkil etilgan ta'lim dasturlarini ko'paytirish** xorijiy talabalarni jalb qilishning muhim sharti hisoblanadi. Xalqaro ta'lim bozorida raqobatbardosh bo'lish uchun ta'lim dasturlarining mazmuni, o'qitish tili, professor-o'qituvchilarning til kompetensiyasi va akademik muhitning ochiqligi o'zaro uyg'un holda rivojlantirilishi zarur. Shu nuqtayi nazardan, xorijiy talabalar uchun mo'ljallangan o'quv rejalari, fan sillabuslari, qabul talablari va akademik xizmatlar xalqaro standartlarga moslashtirilishi lozim.

Uchinchidan, xorijiy talabalarni jalb qilishda maqsadli **xalqaro axborot-kommunikatsiya** va **marketing ishlarini** kuchaytirish zarur. Oliy ta'lim tashkilotlarining xorijiy abituriyentlar uchun ochiq, tushunarli va ko'p tilli axborot resurslariga ega bo'lishi muhim. Bunda ta'lim dasturlari, kontrakt shartlari, qabul jarayonlari, yashash sharoitlari, viza va ma'muriy masalalar

haqidagi ma'lumotlar tizimli va ishonchli tarzda taqdim etilishi xorijiy talabalar qaror qabul qilish jarayoniga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

To'rtinchidan, xorijiy talabalar uchun **akademik va maishiy qo'llab-quvvatlash infratuzilmasini rivojlantirish** muhim ahamiyatga ega. Xorijiy talabalar bilan ishlash bo'limlari, maslahat xizmatlari, moslashuv dasturlari, turar joy va tibbiy xizmatlar, til va madaniy integratsiya kurslari xorijiy talabalarning ta'lim muhitiga moslashuvini yengillashtiradi. Bu omillar nafaqat talabalarni jalb qilish, balki ularni ta'lim jarayonida saqlab qolish va ta'lim sifatiga bo'lgan qoniqishini oshirishga ham xizmat qiladi.

Beshinchidan, ma'lumotlar sifatini oshirish xorijiy talabalar kontingentini tahlil qilish va baholash jarayonining muhim sharti hisoblanadi. **"HEMIS" axborot tizimida** xorijiy talabalarga oid ma'lumotlarni to'liq, aniq va bir xil mezonlar asosida kiritish, fuqarolik, davlat, yosh, ta'lim bosqichi va oliy ta'lim tashkilotiga oid ma'lumotlarni muntazam verifikatsiya qilish tahlil natijalarining ishonchliligini oshiradi. Bu milliy reyting indikatorlarini hisoblashda ham, xorijiy talabalarni jalb qilish bo'yicha boshqaruv qarorlarini qabul qilishda ham muhim ahamiyatga ega.

Umuman olganda, xorijiy talabalarni jalb qilish imkoniyatlari ta'lim dasturlarini xalqaro talabga moslashtirish, xorijiy tillarda o'qitishni kengaytirish, institutsional marketingni kuchaytirish, talabalarga xizmat ko'rsatish infratuzilmasini rivojlantirish hamda axborot tizimidagi ma'lumotlar sifatini oshirish bilan bevosita bog'liq. Mazkur yo'nalishlarda tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish oliy ta'lim tizimining xalqaro jozibadorligini oshirish va xorijiy talabalar geografiyasini kengaytirishga xizmat qiladi.

Tahlil natijalariga ko'ra, 2025 yil holatida oliy ta'lim tashkilotlarida **24 647 nafar** xorijiy talaba tahsil olmoqda. Ularning asosiy qismi **T₃** va **T₂** guruhlariga mansub bo'lib, mamlakatlar kesimida **Hindiston** va **Markaziy Osiyo davlatlari** fuqarolari salmoqli o'rin egallaydi.

Xorijiy talabalar kontingenti hududlar va oliy ta'lim tashkilotlar kesimida yuqori darajada jamlangan. **Toshkent shahri, Samarqand, Buxoro, Farg'ona, Andijon** va **Xorazm** hududlarida jami **23 528 nafar** yoki xorijiy talabalarning **95,5 foizi** tahsil olmoqda.

Shuningdek, xorijiy talabalar soni eng yuqori bo'lgan **10 ta oliy ta'lim tashkiloti** hissasiga **20 200 nafar** yoki umumiy kontingentning **81,96 foizi** to'g'ri keladi.

Ta'lim yo'nalishlari bo'yicha asosiy konsentratsiya **tibbiyot sohasida** kuzatilib, ushbu toifadagi oliy ta'lim tashkilotlarida **15 656 nafar** xorijiy talaba tahsil olmoqda. Ularning mazkur toifadagi umumiy talabalar kontingentiga nisbatan ulushi **14,32 foizni** tashkil etadi.

Xorijiy talabalarning **22 685 nafari** yoki **92,04 foizi davlat oliy ta'lim tashkilotlarida** tahsil olayotgani ham kontingentning mulkchilik shakllari bo'yicha notekis taqsimlanganini ko'rsatadi.

Aniqlangan **hududiy, tashkiliy** va **ta'lim yo'nalishlari** bo'yicha farqlar xorijiy talabalarni jalb qilish siyosatini hududlar va oliy ta'lim tashkilotlari toifalarining xususiyatlarini hisobga olgan holda diversifikatsiya qilish muhimligini ko'rsatadi.

VI. XALQARO REYTINGLARNING TOP-1000 TALIGIGA KIRUVCHI MAHALLIY UNIVERSITETLARDA XORIJIY TALABALAR KONTINGENTI TAHLILI

6.1. Umumiy tavsif

Xalqaro reytinglarning TOP-1000 taligiga kiruvchi mahalliy oliy ta'lim tashkilotlari qatoriga **Milliy tadqiqot universiteti "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish muhandislari instituti"**, **O'zbekiston Milliy universiteti** va **Toshkent davlat texnika universiteti** kiradi.

Bu universitetlarda jami **60 483 nafar** talaba tahsil olmoqda. Shundan **4 846 nafari** xorijiy talabalar bo'lib, ularning umumiy talabalar kontingentidagi ulushi **8,01 foizni** tashkil etadi. Bu ushbu universitetlarda ta'lim jarayonining xalqarolashuv darajasi qator oliy ta'lim tashkilotlariga nisbatan yuqoriroq ekanini ko'rsatadi.

TOP-1000 toifasiga kiruvchi mahalliy universitetlarda xorijiy talabalar kontingentining shakllanishi, avvalo, ularning xalqaro akademik nufuzi, ilmiy salohiyati, ta'lim dasturlarining mintaqaviy jozibadorligi va Markaziy Osiyo davlatlari bilan shakllangan akademik aloqalari bilan bog'liq.

6.2. TOP-1000 toifasidagi universitetlar ko'rsatkichlari

Davlatlar guruhleri bo'yicha tahlil mazkur toifada xorijiy talabalar kontingenti asosan Markaziy Osiyo davlatlari fuqarolari (T_2 guruh) hisobiga shakllanganini ko'rsatadi. Xususan, TOP-1000 toifasidagi universitetlarda T_2 guruhiga mansub xorijiy talabalar soni **4 745 nafarni** tashkil etadi. Bu, asosan, Milliy tadqiqot universiteti "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish muhandislari instituti" va O'zbekiston Milliy universitetida **Markaziy Osiyo davlatlaridan** kelgan talabalar sonining yuqoriligi bilan izohlanadi.

Mazkur toifada T_1 guruhiga mansub talabalar soni **15 nafar**, T_3 guruhiga mansub talabalar soni esa **86 nafarni** tashkil etadi. Bu TOP-1000 toifasiga kiruvchi mahalliy universitetlarda xorijiy talabalar tarkibida **Markaziy Osiyo davlatlari** fuqarolari mutlaq ustunlik qilayotganini ko'rsatadi.

Universitetlar kesimida eng yuqori ko'rsatkich **Milliy tadqiqot universiteti "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini**

mexanizatsiyalashtirish muhandislari instituti” hissasiga to‘g‘ri keladi. Ushbu universitetda **2 886 nafar** xorijiy talaba tahsil olib, ularning **2 859 nafari T₂ guruhiga** mansub.

O‘zbekiston Milliy universitetida 1 917 nafar xorijiy talaba tahsil olayotgan bo‘lib, ularning **1 881 nafari T₂ guruhiga** to‘g‘ri keladi.

Toshkent davlat texnika universitetida esa xorijiy talabalar soni **43 nafarni** tashkil etib, unda **T₃ guruhiga** mansub talabalar ustunlik qiladi.

TOP–1000 toifasidagi mahalliy universitetlarda xorijiy talabalarning davlatlar guruhlari bo‘yicha tarkibi 2-jadvalda keltirilgan.

Jadval universitetlar kesimida xorijiy talabalar soni, ularning T₁–T₃ guruhlari bo‘yicha taqsimoti va umumiy talabalar kontingentini qiyosiy baholash imkonini beradi.

T/r	Mulkchilik shakli	Oliy ta’lim tashkiloti nomi	T ₁	T ₂	T ₃	Umumiy kontingent	Xorijiy talabalar
1	Davlat	Milliy tadqiqot universiteti “Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalashtirish muhandislari instituti”	1	2 859	26	10 738	2 886
2	Davlat	O‘zbekiston Milliy universiteti	10	1 881	26	32 396	1 917
3	Davlat	Toshkent davlat texnika universiteti	4	5	34	17 349	43

2-jadval. Xalqaro reytinglarning TOP–1000 taligiga kiruvchi mahalliy universitetlarda xorijiy talabalarning davlatlar guruhlari bo‘yicha tarkibi, 2025-yil (nafar)

Manba: “HEMIS” axborot tizimi ma’lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

Xalqaro reytinglar amaliyotida xorijiy talabalar ulushi oliy ta’lim tashkilotlarining xalqarolashuv darajasini baholashda muhim ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi.

Xususan, **QS Asia University Rankings** metodologiyasida xorijiy professor-o‘qituvchilar ulushi, xorijiy talabalar ulushi, shuningdek, kiruvchi va chiquvchi akademik almashinuv dasturlarida ishtirok etuvchi talabalar ulushi

alohida indikatorlar sifatida qo'llaniladi.⁴ Ushbu indikatorlarning har biri reytingning umumiy natijasida **2,5 foizlik vaznga** ega.

Shuningdek, **QS Asia University Rankings 2025** natijalari Osiyoning alohida submintaqalari bo'yicha ham taqdim etilgan. Reytingning Markaziy Osiyo kesimi **Qozog'iston va O'zbekiston oliy ta'lim tashkilotlarini** qamrab olgan.⁵

Mazkur holat xorijiy talabalar ulushining milliy reyting indikatorlaridan biri sifatida qo'llanilishi xalqaro va mintaqaviy reytinglar amaliyotiga metodologik jihatdan muvofiq ekanini ko'rsatadi.

Tahlil natijalariga ko'ra, **TOP-1000 toifasidagi 4 846 nafar xorijiy talabaning 4 745 nafari yoki 97,9 foizi T₂ guruhiga mansub**. Bu mazkur toifada xorijiy talabalar kontingenti **asosan Markaziy Osiyo davlatlari fuqarolari hisobiga shakllanganini** ko'rsatadi. **T₁ va T₃ guruhlari ulushining pastligi** esa xorijiy talabalar geografiyasini kengaytirish imkoniyatlari mavjudligini anglatadi.

⁴ QS Quacquarelli Symonds. *QS Asia University Rankings: Methodology*.
URL: <https://www.topuniversities.com/asia-rankings/methodology> (20.07.2026).

⁵ QS Quacquarelli Symonds. *QS World University Rankings: Asia 2025*
URL: <https://www.topuniversities.com/asia-university-rankings/central-asia/2025> (20.07.2026).

VII. AMALIY TOIFADAGI OLIY TA'LIM TASHKILOTLARIDA XORIJIY TALABALAR KONTINGENTI TAHLILI

7.1. Umumiy tavsif

Amaliy toifadagi oliy ta'lim tashkilotlari **texnika, muhandislik, agrar** hamda **texnologik ta'lim yo'nalishlarini** qamrab oladi. Mazkur toifa milliy reytingda ishtirok etuvchi oliy ta'lim tashkilotlari orasida umumiy talabalar kontingenti eng katta bo'lgan yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

2025-yil holatiga ko'ra, ushbu toifaga milliy reytingda ishtirok etuvchi **40 ta oliy ta'lim tashkiloti** kiradi. Ularning **37 tasida** xorijiy talabalar tahsil olmoqda. Bu amaliy toifadagi oliy ta'lim tashkilotlarining aksariyati xorijiy talabalarni qabul qilish jarayonida ishtirok etayotganini ko'rsatadi.

Amaliy toifadagi oliy ta'lim tashkilotlarida jami **265 417 nafar** talaba tahsil olmoqda. Shundan **680 nafari** xorijiy talabalar bo'lib, bu umumiy talabalar kontingentining **0,26 foizini** tashkil etadi. Mazkur ko'rsatkich xorijiy talabalarni jalb qilish darajasi ushbu toifada hozircha nisbatan past ekanini ko'rsatadi.

Davlatlar guruhlari bo'yicha tahlil xorijiy talabalar tarkibi amaliy yo'nalishda nisbatan muvozanatli shakllanganini ko'rsatadi. Xususan, **T₁ guruhiga 151 nafar, T₂ guruhiga 268 nafar, T₃ guruhiga esa 261 nafar** xorijiy talaba to'g'ri keladi. Bu amaliy toifadagi oliy ta'lim tashkilotlarida xorijiy talabalar kontingenti turli davlatlar guruhlari hisobiga shakllanayotganini anglatadi.

7.2. Amaliy toifadagi oliy ta'lim tashkilotlari reytingi

Milliy reyting metodologiyasiga muvofiq, amaliy toifadagi oliy ta'lim tashkilotlari "**Xorijiy davlat fuqarosi bo'lgan talabalar ulushi**" indikatori bo'yicha baholandi.

Yakuniy ball xorijiy talabalarning mutlaq soniga emas, balki **davlatlar guruhlari bo'yicha xorijiy talabalar tarkibi** va **umumiy talabalar kontingentini** inobatga olgan holda hisoblangan vaznlashtirilgan indikator qiymati asosida shakllantirildi.

Tahlil amaliy toifadagi oliy ta'lim tashkilotlari o'rtasida ushbu indikator bo'yicha sezilarli tafovutlar mavjudligini ko'rsatadi.

Misol uchun, **Toshkent shahridagi Puchon universiteti 8,48 foiz** ko'rsatkich va **3 ball** bilan birinchi o'rinni egallagan. Keyingi o'rinlarda **IT Park**

University (7,61 foiz, 2,695 ball) va **Toshkent shahridagi Adju universiteti** (4,35 foiz, 1,540 ball) joylashgan.

Shuningdek, yuqori natija qayd etgan oliy ta'lim tashkilotlari qatorida **I.M. Gubkin nomidagi Rossiya davlat neft va gaz universitetining Toshkent filiali, Toshkent arxitektura-qurilish universiteti, Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti, Toshkent shahridagi Inha universiteti, Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti, Olmaliq davlat texnika instituti hamda Milliy tadqiqot yadro universiteti "MMFI"ning Toshkent filiali** ham bor.

Mazkur oliy ta'lim tashkilotlarida xorijiy talabalar ulushi amaliy toifadagi boshqa tashkilotlarga nisbatan yuqoriroq shakllangan.

Ayrim oliy ta'lim tashkilotlarida esa xorijiy talabalar soni juda kam yoki umuman mavjud emas. Xususan, **Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti, D.I. Mendeleev nomidagi Rossiya kimyo-texnologiya universitetining Toshkent filiali** hamda **Samarqand davlat veterinariya tibbiyoti, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining Nukus filialida** mazkur indikator bo'yicha **0 foiz** va **0 ball** qayd etilgan.

Umuman olganda, amaliy toifadagi oliy ta'lim tashkilotlarida xorijiy talabalarni jalb qilish ko'rsatkichlari bir xil emas. Xorijiy va nodavlat oliy ta'lim tashkilotlari, shuningdek ayrim davlat oliy ta'lim tashkilotlari nisbatan yuqori natijalarni namoyon etgan bo'lsa, aksariyat davlat oliy ta'lim tashkilotlarida mazkur indikator bo'yicha ko'rsatkichlar past darajada saqlanib qolmoqda.

3-jadval. Amaliy toifadagi oliy ta'lim tashkilotlarining reytingi

O'rin	Mulkchilik shakli	Oliy ta'lim tashkiloti nomi	T ₁	T ₂	T ₃	Umumiy kontingent	Ko'rsatkich	Ball
1	Xorijiy filial	Toshkent shahridagi Puchon universiteti	38	33	3	2 159	8,48%	3,000
2	Nodavlat	IT Park University	7	5	6	486	7,61%	2,695
3	Xorijiy filial	Toshkent shahridagi Adju universiteti	9	13	8	1 402	4,35%	1,540
4	Xorijiy filial	I.M.Gubkin nomidagi Rossiya davlat neft va gaz universiteti Toshkent shahridagi filiali	8	2	0	813	3,44%	1,219
5	Davlat	Toshkent arxitektura-qurilish universiteti	16	47	15	8 134	1,93%	0,683
6	Davlat	Toshkent axborot texnologiyalari universiteti	24	58	11	14 481	1,37%	0,486
7	Xorijiy filial	Toshkent shahridagi Inha Universiteti	5	3	3	1 837	1,31%	0,462
8	Xorijiy filial	Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti	5	4	4	2 694	1,00%	0,355
9	Davlat	Olmaliq davlat texnika instituti	6	16	1	5 430	0,94%	0,332
10	Xorijiy filial	MMFI milliy tadqiqot yadro universiteti federal davlat avtonom oliy ta'lim muassasasining Toshkent shahridagi filiali	0	1	0	231	0,87%	0,306
11	Xorijiy filial	Federal davlat avtonom oliy ta'lim muassasasi Milliy texnologik tadqiqotlar universiteti MISiS ning Olmaliq shahridagi filiali	2	1	0	1 005	0,80%	0,282
12	Davlat	Geologiya fanlari universiteti	0	0	15	2 090	0,72%	0,254
13	Davlat	Buxoro davlat texnika universiteti	2	3	63	15 682	0,48%	0,169
14	Davlat	Toshkent davlat transport universiteti	5	8	66	23 239	0,42%	0,148
15	Davlat	Toshkent kimyo-texnologiya instituti	1	12	5	8 358	0,38%	0,136
16	Davlat	Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti	2	13	0	8 493	0,38%	0,133

O'rin	Mulkchilik shakli	Oliy ta'lim tashkiloti nomi	T ₁	T ₂	T ₃	Umumiy kontingent	Ko'rsatkich	Ball
17	Davlat	Toshkent kimyo-texnologiya instituti Yangiyer filiali	0	3	5	3 015	0,36%	0,129
18	Davlat	Yangi O'zbekiston universiteti	0	0	5	1 510	0,33%	0,117
19	Davlat	Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti	2	5	0	5 098	0,31%	0,111
20	Nodavlat	Japan Digital University	0	1	0	689	0,29%	0,103
21	Xorijiy filial	Astraxan davlat texnika universitetining Toshkent viloyatidagi filiali	0	1	0	783	0,26%	0,090
22	Davlat	Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti	1	7	0	8 241	0,21%	0,073
23	Davlat	Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti	4	4	1	10 686	0,20%	0,070
24	Davlat	Namangan davlat texnika universiteti	2	1	23	17 424	0,18%	0,063
25	Davlat	Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti	1	0	0	1 735	0,17%	0,061
26	Xorijiy filial	Toshkent shahridagi Belarus-O'zbekiston qo'shma tarmoqlararo amaliy texnik kvalifikatsiyalar instituti	0	1	1	1 835	0,16%	0,058
27	Davlat	Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti	0	2	11	9 683	0,15%	0,055
28	Davlat	Farg'ona davlat texnika universiteti	5	5	3	18 154	0,15%	0,055
29	Davlat	Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti	0	2	0	3 094	0,13%	0,046
30	Davlat	Andijon davlat universiteti	2	5	0	13 245	0,12%	0,043
31	Davlat	Jizzax politexnika instituti	0	4	1	8 592	0,10%	0,037
32	Davlat	Toshkent davlat agrar universiteti	1	3	3	12 899	0,09%	0,033

O'rin	Mulkchilik shakli	Oliy ta'lim tashkiloti nomi	T ₁	T ₂	T ₃	Umumiy kontingent	Ko'rsatkich	Ball
33	Davlat	Qarshi davlat texnika universiteti	3	2	4	21 766	0,08%	0,028
34	Davlat	Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Toshkent filiali	0	1	0	2 576	0,08%	0,027
35	Davlat	Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filiali	0	1	0	3 554	0,06%	0,020
36	Davlat	Andijon davlat texnika instituti	0	0	4	9 591	0,04%	0,015
37	Davlat	Nukus davlat texnika universiteti	0	1	0	5 791	0,03%	0,012
38	Davlat	Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti	0	0	0	7 318	0,00%	0,000
39	Xorijiy filial	D.I. Mendeleev nomidagi Rossiya kimyo-texnologiya universitetining Toshkent filiali	0	0	0	608	0,00%	0,000
40	Davlat	Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali	0	0	0	996	0,00%	0,000

Izoh: ko'rsatkich Milliy reytingdagi **“Xorijiy davlat fuqarosi bo'lgan talabalar ulushi”** indikatorini asosida amaliy toifa uchun maksimal **3 ball** etib belgilangan.

Tahlil natijalari amaliy toifadagi oliy ta'lim tashkilotlarining aksariyati xorijiy talabalarni qabul qilayotgan bo'lsa-da, **ularning toifadagi umumiy talabalar kontingentidagi ulushi 0,26 foiz bilan nisbatan past** ekanini ko'rsatadi. T₂ va T₃ guruhlarida ko'rsatkichlari bir-biriga yaqin, T₁ guruhidagi talabalar soni esa pastroq.

Reyting natijalari xorijiy talabalarni jalb qilish bo'yicha **yuqori ko'rsatkichlar asosan xorijiy filiallar, nodavlat oliy ta'lim tashkilotlari va ayrim davlat oliy ta'lim tashkilotlarida jamlanganini** ko'rsatadi.

Aniqlangan farqlarning sabablarini baholash uchun **ta'lim dasturlari, qabul siyosati, xalqaro hamkorlik va talabalar uchun yaratilgan sharoitlar bo'yicha qo'shimcha tahlil o'tkazish zarur.**

VIII. TIBBIYOT TOIFASIDAGI OLIY TA'LIM TASHKILOTLARIDA XORIJIY TALABALAR KONTINGENTI TAHLILI

8.1. Umumiy tavsif

Tibbiyot toifasidagi oliy ta'lim tashkilotlari milliy reytingda ishtirok etuvchi toifalar orasida xorijiy talabalarning ham mutlaq soni, ham ularning umumiy talabalar kontingentidagi ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichlarga ega. Bu O'zbekistonda tibbiyot ta'limiga xorijiy talab yuqori ekanini va mazkur toifadaning xalqaro ta'lim bozorida nisbatan yuqori jozibadorlikka ega bo'lib borayotganini ko'rsatadi.

Mazkur toifaga milliy reytingda ishtirok etuvchi **14 ta oliy ta'lim tashkiloti** kiradi.

Tibbiyot toifasidagi oliy ta'lim tashkilotlarida **109 311 nafar** talaba tahsil olmoqda. Shundan **15 656 nafari** xorijiy talabalar bo'lib, bu umumiy talabalar kontingentining **14,32 foizini** tashkil etadi.

Davlatlar guruhleri bo'yicha tahlil tibbiyot toifasidagi oliy ta'lim tashkilotlarida xorijiy talabalar kontingentining asosiy qismi T_3 guruhi hisobiga shakllanganini ko'rsatadi. Xususan, T_1 guruhiga **441 nafar**, T_2 guruhiga **1 145 nafar**, T_3 guruhiga esa **14 070 nafar** xorijiy talaba to'g'ri keladi. Bu holat, asosan, **Janubiy Osiyo** va **boshqa xorijiy davlatlardan** kelgan talabalarning tibbiyot oliy ta'lim tashkilotlariga yuqori qiziqishi bilan izohlanadi.

8.2. Tibbiyot toifasidagi oliy ta'lim tashkilotlari reytingi

Milliy reyting metodologiyasiga muvofiq, tibbiyot toifasidagi oliy ta'lim tashkilotlari **"Xorijiy davlat fuqarosi bo'lgan talabalar ulushi"** indikatori asosida baholandi.

Yakuniy reyting bali xorijiy talabalarning mutlaq soniga emas, balki davlatlar guruhleri bo'yicha xorijiy talabalar tarkibi hamda umumiy talabalar kontingentini inobatga olgan holda hisoblangan vaznlashtirilgan indikator qiymati asosida shakllantirildi.

Tibbiyot toifasidagi oliy ta'lim tashkilotlarida xorijiy talabalarni jalb qilish boshqa toifalarga nisbatan yuqori bo'lsa-da, oliy ta'lim tashkilotlari o'rtasida sezilarli farqlar mavjud.

Eng yuqori natijalar **Samarqand davlat tibbiyot universiteti** (26,52 foiz, 3 ball), **Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti** (25,05 foiz,

2,834 ball) va **Buxoro davlat tibbiyot instituti** (21,68 foiz, 2,453 ball) tomonidan qayd etilgan.

Shuningdek, **Urganch davlat tibbiyot instituti** (19,96 foiz, 2,258 ball) va **Toshkent davlat tibbiyot universiteti** (16,26 foiz, 1,840 ball) ham yuqori natijalarni namoyon etgan.

Reytingning o'rta qismida **Andijon davlat tibbiyot instituti, Central Asian University, Central Asian Medical University, Buxoro innovatsion ta'lim va tibbiyot universitet, Toshkent davlat tibbiyot universitetining Termiz filiali, Toshkent farmatsevtika instituti va Farmatsevtika ta'limi va tadqiqot instituti** joylashgan. Ushbu oliy ta'lim tashkilotlarida mazkur indikator bo'yicha ko'rsatkichlar **3,05 foizdan 11,96 foizgacha** oraliqda shakllangan.

Ayni paytda, **Qoraqalpog'iston tibbiyot institutida** xorijiy talabalar ulushi **0,39 foizni** tashkil etgan bo'lsa, **Qozon federal universitetining Jizzax shahridagi filialida** mazkur indikator bo'yicha **0,30 foiz** va **0,034 ball** qayd etilgan.

Umuman olganda, tibbiyot toifasidagi oliy ta'lim tashkilotlari reytingi mazkur toifada xorijiy talabalarni jalb qilish darajasi respublikadagi boshqa toifalarga nisbatan yuqori ekanini tasdiqlaydi.

Biroq toifa ichidagi tafovutlar ayrim oliy ta'lim tashkilotlarida xorijiy talabalarni jalb qilish salohiyati yanada kengaytirilishi mumkinligini ko'rsatadi.

4-jadval. Tibbiyot toifasidagi oliy ta'lim tashkilotlarining reytingi

O'rin	Mulkchilik shakli	Oliy ta'lim tashkiloti nomi	T ₁	T ₂	T ₃	Umumiy kontingent	Ko'rsatkich	Ball
1	Davlat	Samarqand davlat tibbiyot universiteti	28	19	4 106	15 943	26,52%	3,000
2	Davlat	Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti	11	58	1 530	6 703	25,05%	2,834
3	Davlat	Buxoro davlat tibbiyot instituti	26	93	2 059	10 715	21,68%	2,453
4	Davlat	Urganch davlat tibbiyot instituti	10	167	1 148	7 575	19,96%	2,258
5	Davlat	Toshkent davlat tibbiyot universiteti	236	584	3 335	32 045	16,26%	1,840
6	Davlat	Andijon davlat tibbiyot instituti	83	52	1 275	13 617	11,96%	1,352
7	Nodavlat	Central Asian University	24	33	12	1 953	7,68%	0,869
8	Nodavlat	Central Asian Medical University	7	93	14	3 228	6,85%	0,774
9	Nodavlat	Buxoro innovatsion ta'lim va tibbiyot universiteti	5	0	185	3 030	6,60%	0,747
10	Davlat	Toshkent davlat tibbiyot universiteti Termiz filiali	1	21	283	5 633	5,82%	0,659
11	Davlat	Toshkent farmatsevtika instituti	8	15	90	3 381	4,26%	0,482
12	Nodavlat	Farmatsevtika ta'lim va tadqiqot instituti	1	6	29	1 443	3,05%	0,345
13	Davlat	Qoraqalpog'iston tibbiyot instituti	0	4	4	3 048	0,39%	0,045
14	Xorijiy filial	Jizzax shahridagi "Qozon federal universiteti" federal davlat avtonom oliy ta'lim muassasasining filiali	1	0	0	997	0,30%	0,034

Izoh: ko'rsatkich Milliy reytingdagi "Xorijiy davlat fuqarosi bo'lgan talabalar ulushi" indikatori asosida tibbiyot toifasidagi oliy ta'lim tashkilotlari uchun maksimal **3 ball** etib belgilangan.

Tahlil natijalari tibbiyot toifasidagi oliy ta'lim tashkilotlar **xorijiy talabalarining mutlaq soni** (15 656 nafar) va **ularning umumiy talabalar kontingentidagi ulushi** (14,32 foiz) bo'yicha milliy reyting toifalari orasida eng yuqori ko'rsatkichga ega ekanini ko'rsatadi.

Xorijiy talabalarining **14 070 nafari T₃ guruhiga mansub** bo'lib, mazkur toifadagi xorijiy talabalar kontingenti asosan ushbu davlatlar guruhi hisobiga shakllangan.

Reytingda **Samarqand davlat tibbiyot universiteti yetakchilik qilgan, Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti, Buxoro davlat tibbiyot instituti, Urganch davlat tibbiyot instituti va Toshkent davlat tibbiyot universiteti** ham yuqori natijalarni qayd etgan.

Mazkur ko'rsatkichlar tibbiyot yo'nalishining xorijiy talabalar uchun **nisbatan yuqori jozibadorligini** ko'rsatadi.

Biroq oliy ta'lim tashkilotlar o'rtasidagi farqlarning sabablarini aniqlash uchun qabul siyosati, ta'lim dasturlari, xalqaro hamkorlik va talabalar uchun yaratilgan sharoitlarni qo'shimcha tahlil qilish zarur.

IX. IJTIMOIIY-GUMANITAR TOIFADAGI OLIY TA'LIM TASHKILOTLARIDA XORIJIY TALABALAR KONTINGENTI TAHLILI

9.1. Umumiy tavsif

Ijtimoiy-gumanitar toifadagi oliy ta'lim tashkilotlari **iqtisodiyot, pedagogika, huquqshunoslik, gumanitar fanlar** va **boshqa ijtimoiy sohalar** bo'yicha ta'lim dasturlarini qamrab oladi. Mazkur toifa milliy reytingda ishtirok etuvchi oliy ta'lim tashkilotlari soni bo'yicha eng yirik toifa hisoblanadi.

Ushbu toifaga milliy reytingda ishtirok etuvchi **99 ta oliy ta'lim tashkiloti** kiradi. Ularning **88 tasida** xorijiy talabalar tahsil olmoqda. Bu ijtimoiy-gumanitar toifadagi oliy ta'lim tashkilotlarining katta qismi xorijiy talabalarni qabul qilish jarayonida ishtirok etayotganini ko'rsatadi.

Ijtimoiy-gumanitar toifadagi oliy ta'lim tashkilotlarida **1 015 634 nafar** talaba tahsil olmoqda. Shundan **3 211 nafari** xorijiy talaba bo'lib, bu umumiy talabalar kontingentining **0,3 foizini** tashkil etadi. Bu ushbu toifada xorijiy talabalarni jalb qilish darajasi umumiy kontingentga nisbatan past ekanini ko'rsatadi.

Davlatlar guruhleri bo'yicha tahlil mazkur toifada xorijiy talabalar kontingentining asosiy qismi **T₃ guruhi** hisobiga shakllanganini ko'rsatadi. Xususan, T₁ guruhiga **494 nafar**, T₂ guruhiga **1 058 nafar**, T₃ guruhiga esa **1 659 nafar** xorijiy talaba to'g'ri keladi. Bu ijtimoiy-gumanitar toifadagi oliy ta'lim tashkilotlarida xorijiy talabalar turli davlatlar guruhleri hisobiga shakllanayotgan bo'lsa-da, T₃ guruhi ustunlik qilayotganini anglatadi.

9.2. Ijtimoiy-gumanitar toifadagi oliy ta'lim tashkilotlari reytingi

Milliy reyting metodologiyasiga muvofiq, ijtimoiy-gumanitar toifadagi oliy ta'lim tashkilotlari "**Xorijiy davlat fuqarosi bo'lgan talabalar ulushi**" indikatori asosida baholandi. Yakuniy reyting bali xorijiy talabalarining mutlaq soniga emas, balki davlatlar guruhleri bo'yicha xorijiy talabalar tarkibi hamda umumiy talabalar kontingentini inobatga olgan holda hisoblangan vaznlashtirilgan indikator qiymati asosida shakllantirildi.

Tahlil natijalari ijtimoiy-gumanitar toifadagi oliy ta'lim tashkilotlari o'rtasida xorijiy talabalarni jalb qilish ko'rsatkichlari bir xil emasligini ko'rsatadi.

Mazkur toifada oliy ta'lim tashkilotlari soni nisbatan ko'p bo'lishiga qaramay, xorijiy talabalarining umumiy talabalar kontingentidagi ulushi past.

5-jadval. Ijtimoiy-gumanitar toifadagi oliy ta'lim tashkilotlarining reytingi

O'rin	Mulkchilik shakli	Oliy ta'lim tashkiloti nomi	T ₁	T ₂	T ₃	Umumiy kontingent	Ko'rsatkich	Ball
1	Nodavlat	TEAM University	9	4	2	452	8,19%	3,000
2	Xorijiy filial	Rossiya Federatsiyasi Tashqi ishlar vazirligi Moskva davlat xalqaro munosabatlar instituti (MGIMO)ning Toshkent filiali	10	1	2	423	8,04%	2,946
3	Xorijiy filial	M.V.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universitetining Toshkent shahridagi filiali	15	4	2	931	5,91%	2,165
4	Xorijiy filial	Riga Nordic University Farg'ona shahridagi filiali	0	5	0	216	4,63%	1,697
5	Nodavlat	British Management University in Tashkent	4	19	9	1 345	4,39%	1,608
6	Xorijiy filial	G.V.Plexanov nomli Rossiya iqtisodiyot universiteti Toshkent filiali	10	3	1	934	3,96%	1,452
7	Xorijiy filial	Toshkent shahridagi Vebster universitetining ta'lim dasturlarini amalga oshirish markazi	44	32	49	6 722	3,64%	1,336
8	Davlat	Ipak yo'li turizm va madaniy meros xalqaro universiteti	8	18	67	3 710	3,42%	1,255
9	Xorijiy filial	Toshkent shahridagi Amiti universiteti	7	0	9	897	3,34%	1,226
10	Davlat	Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti	18	20	75	6 307	2,68%	0,982
11	Xorijiy filial	Toshkent Xalqaro Vestminster Universiteti	28	32	43	7 754	2,46%	0,903
12	Davlat	Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti	29	122	99	18 374	2,34%	0,858
13	Davlat	O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi	6	17	4	2 690	2,08%	0,763

O'rin	Mulkchilik shakli	Oliy ta'lim tashkiloti nomi	T ₁	T ₂	T ₃	Umumiy kontingent	Ko'rsatkich	Ball
14	Davlat	Guliston davlat universiteti	1	104	13	14 330	1,56%	0,573
15	Davlat	Toshkent davlat yuridik universiteti	33	19	11	9 976	1,48%	0,544
16	Xorijiy filial	Toshkent shahridagi Singapur Menejmentni rivojlantirish instituti	12	9	6	4 484	1,34%	0,490
17	Nodavlat	Zarmed Universiteti	2	6	163	13 650	1,33%	0,486
18	Davlat	O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti	21	49	115	22 162	1,25%	0,456
19	Xorijiy filial	Toshkent shahridagi Turkiyaning iqtisodiyot va texnologiyalar universiteti filiali	0	1	3	410	1,22%	0,447
20	Davlat	Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti	16	7	3	5 349	1,22%	0,445
21	Davlat	Namangan davlat universiteti	0	28	105	14 493	1,11%	0,407
22	Xorijiy filial	Toshkent shahridagi "A.I.Gersen nomidagi Rossiya Davlat pedagogika universiteti"	3	0	0	864	1,04%	0,382
23	Davlat	Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti	70	86	116	48 203	1,03%	0,379
24	Davlat	Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti	14	37	40	15 266	1,02%	0,375
25	Nodavlat	ALFRAGANUS UNIVERSITY	9	42	91	23 489	0,86%	0,315
26	Nodavlat	Osiyo xalqaro universiteti	3	6	226	30 747	0,80%	0,294
27	Nodavlat	Millat umidi universiteti	1	8	2	2 764	0,76%	0,278
28	Davlat	Andijon davlat chet tillari instituti	8	3	2	4 334	0,74%	0,271
29	Davlat	Farg'ona davlat universiteti	14	63	3	25 210	0,68%	0,249
30	Davlat	Navoiy davlat universiteti	0	4	100	16 925	0,64%	0,234
31	Davlat	Xalqaro qishloq xo'jaligi universiteti	1	1	0	839	0,60%	0,218
32	Davlat	O'zbekiston jurnalistika va ommaviy	3	4	17	5 993	0,57%	0,208

O'rin	Mulkchilik shakli	Oliy ta'lim tashkiloti nomi	T ₁	T ₂	T ₃	Umumiy kontingent	Ko'rsatkich	Ball
		kommunikatsiyalar universiteti						
33	Nodavlat	Angren universiteti	0	1	25	4 789	0,56%	0,207
34	Davlat	Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti	0	2	29	5 991	0,55%	0,202
35	Davlat	Samarqand davlat universitetining Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti	1	20	0	7 956	0,54%	0,198
36	Davlat	Guliston davlat pedagogika instituti	2	12	1	5 870	0,53%	0,194
37	Nodavlat	Tashkent International University of Education	1	2	0	1 349	0,52%	0,190
38	Davlat	Namangan davlat chet tillari instituti	2	4	2	3 477	0,46%	0,169
39	Davlat	Qarshi davlat universiteti	2	5	43	14 239	0,41%	0,152
40	Davlat	Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining Urgut filiali	0	4	0	1 954	0,41%	0,150
41	Davlat	Samarqand davlat chet tillar instituti	7	6	13	11 309	0,41%	0,149
42	Davlat	Chirchiq davlat pedagogika universiteti	5	26	4	19 540	0,36%	0,133
43	Nodavlat	Profi University	1	12	2	8 047	0,36%	0,132
44	Nodavlat	Farg'ona shahridagi Koreya xalqaro universiteti	1	2	0	1 956	0,36%	0,131
45	Xorijiy filial	O'zbekistondagi Sharda universiteti	1	0	0	905	0,33%	0,121
46	Nodavlat	Toshkent Kimyo xalqaro universiteti	33	52	21	68 044	0,33%	0,121
47	Nodavlat	Vatan Universiteti	2	0	0	1 876	0,32%	0,117
48	Nodavlat	Qo'qon universiteti	0	15	8	12 114	0,31%	0,115
49	Davlat	Andijon davlat pedagogika instituti	6	8	1	11 974	0,29%	0,107
50	Nodavlat	Yangi Asr Universiteti	2	3	0	4 143	0,29%	0,106
51	Nodavlat	Xalqaro Nordik universiteti	1	3	6	5 292	0,28%	0,104

O'rin	Mulkchilik shakli	Oliy ta'lim tashkiloti nomi	T ₁	T ₂	T ₃	Umumiy kontingent	Ko'rsatkich	Ball
52	Nodavlat	Urganch RANCH texnologiya universiteti	2	3	18	10 951	0,27%	0,100
53	Davlat	Buxoro davlat universiteti	6	6	20	18 487	0,27%	0,099
54	Nodavlat	TMC INSTITUTE	2	9	2	10 348	0,25%	0,092
55	Nodavlat	Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti	0	1	4	2 910	0,21%	0,076
56	Davlat	Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali	0	5	0	4 887	0,20%	0,075
57	Nodavlat	SAMBHRAM universiteti	1	0	0	1 576	0,19%	0,070
58	Davlat	Qo'qon davlat universiteti	3	11	1	16 997	0,19%	0,069
59	Davlat	Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti	1	15	12	24 708	0,18%	0,067
60	Nodavlat	Ma'mun universiteti	1	1	17	12 303	0,18%	0,066
61	Nodavlat	Buxoro xalqaro universiteti	2	0	0	3 392	0,18%	0,065
62	Davlat	Termiz davlat universiteti	0	10	10	17 056	0,18%	0,064
63	Davlat	Jizzax davlat pedagogika universiteti	0	11	0	15 865	0,14%	0,051
64	Nodavlat	Toshkent gumanitar fanlar universiteti	0	5	4	10 442	0,13%	0,049
65	Davlat	Termiz davlat pedagogika instituti	0	6	1	10 805	0,12%	0,044
66	Nodavlat	Turon universiteti	0	2	2	4 995	0,12%	0,044
67	Davlat	Namangan davlat pedagogika instituti	2	2	1	9 364	0,12%	0,043
68	Nodavlat	Diplomat University	0	1	0	1 713	0,12%	0,043
69	Davlat	Samarqand iqtisodiyot va servis instituti	3	0	0	8 851	0,10%	0,037
70	Davlat	Shahrisabz davlat pedagogika instituti	1	3	0	9 441	0,10%	0,035
71	Nodavlat	Termiz iqtisodiyot va servis universiteti	0	1	27	30 725	0,09%	0,035
72	Nodavlat	Renessans ta'lim universiteti	1	2	4	12 328	0,09%	0,033

O'rin	Mulkchilik shakli	Oliy ta'lim tashkiloti nomi	T ₁	T ₂	T ₃	Umumiy kontingent	Ko'rsatkich	Ball
73	Davlat	Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti	0	10	0	26 671	0,07%	0,027
74	Nodavlat	Toshkent ijtimoiy innovatsiya universiteti	0	1	0	2 869	0,07%	0,026
75	Nodavlat	University of innovation technologies	0	3	0	8 936	0,07%	0,025
76	Nodavlat	University of economics and pedagogy	0	2	0	6 331	0,06%	0,023
77	Nodavlat	Xalqaro innovatsion universitet	0	2	0	6 495	0,06%	0,023
78	Nodavlat	Toshkent menedjment va iqtisodiyot instituti	1	0	0	5 730	0,05%	0,019
79	Davlat	Urganch davlat pedagogika instituti	0	2	0	8 303	0,05%	0,018
80	Nodavlat	Oriental universiteti	0	2	0	10 492	0,04%	0,014
81	Nodavlat	Toshkent iqtisodiyot va pedagogika universiteti	0	2	0	10 543	0,04%	0,014
82	Davlat	Samarqand davlat pedagogika instituti	1	0	0	10 052	0,03%	0,011
83	Nodavlat	Buxoro innovatsiyalar universiteti	0	1	1	10 437	0,03%	0,011
84	Nodavlat	Osiyo texnologiyalar universiteti	0	1	0	7 886	0,03%	0,009
85	Nodavlat	Iqtisodiyot va pedagogika universiteti	1	1	2	30 652	0,02%	0,008
86	Nodavlat	ISFT instituti	0	4	0	35 202	0,02%	0,008
87	Davlat	Buxoro davlat pedagogika instituti	0	1	0	11 855	0,02%	0,006
88	Davlat	Nukus davlat pedagogika instituti	0	1	0	13 416	0,01%	0,005
89	Nodavlat	Axborot Texnologiyalari va menejment universiteti	0	0	0	13 589	0,00%	0,000
90	Davlat	Kattaqo'rg'on davlat pedagogika instituti	0	0	0	3 085	0,00%	0,000
91	Xorijiy filial	MEI milliy tadqiqot universiteti Federal davlat byudjeti oliy ta'lim muassasasining Toshkent filiali	0	0	0	518	0,00%	0,000

O'rin	Mulkchilik shakli	Oliy ta'lim tashkiloti nomi	T ₁	T ₂	T ₃	Umumiy kontingent	Ko'rsatkich	Ball
92	Nodavlat	Navoiy innovatsiyalar universiteti	0	0	0	11 697	0,00%	0,000
93	Davlat	Oziq-ovqat texnologiyasi va muhandisligi xalqaro instituti	0	0	0	1 145	0,00%	0,000
94	Nodavlat	Qarshi xalqaro universiteti	0	0	0	6 894	0,00%	0,000
95	Nodavlat	STARS International University	0	0	0	592	0,00%	0,000
96	Nodavlat	Toshkent amaliy fanlar universiteti	0	0	0	24 407	0,00%	0,000
97	Davlat	Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali	0	0	0	3 168	0,00%	0,000
98	Nodavlat	Turan International University	0	0	0	5 196	0,00%	0,000
99	Xorijiy filial	Varshava biznes va amaliy fanlar universitetining Andijon filiali	0	0	0	261	0,00%	0,000

Izoh: ko'rsatkich Milliy reyting metodologiyasida belgilangan **“Xorijiy davlat fuqarosi bo'lgan talabalar ulushi”** indikatori asosida hisoblangan. Ijtimoiy-gumanitar toifadagi oliy ta'lim tashkilotlari uchun maksimal reyting bali **3 ball** etib belgilangan.

Tahlil natijalari ijtimoiy-gumanitar toifadagi **99 ta oliy ta'lim tashkilotining 88 tasida xorijiy talabalar tahsil olayotganini**, biroq ularning umumiy talabalar kontingentidagi ulushi nisbatan past ekanini ko'rsatadi.

Mazkur toifada **1 015 634 nafar talabaning 3 211 nafari** yoki **0,32 foizi xorijiy talabalar** hissasiga to'g'ri keladi.

Reyting natijalariga ko'ra, **TEAM University mazkur indikator bo'yicha yetakchilik qilgan, 11 ta** oliy ta'lim tashkilotida esa xorijiy talabalar qayd etilmagan. Bu ijtimoiy-gumanitar toifada xorijiy talabalarni jalb qilish natijalari **oliy ta'lim tashkilotlari kesimida sezilarli darajada farqlanishini** ko'rsatadi.

Aniqlangan farqlarning sabablarini baholash uchun **ta'lim dasturlari, qabul siyosati, xalqaro hamkorlik** va **xorijiy talabalar uchun** yaratilgan sharoitlarni qo'shimcha tahlil qilish zarur.

X. IJOD (SPORT) TOIFASIDAGI OLIY TA'LIM TASHKILOTLARIDA XORIJIY TALABALAR KONTINGENTI TAHLILI

10.1. Umumiy tavsif

Ijod (sport) toifasidagi oliy ta'lim tashkilotlari milliy reytingda ishtirok etuvchi toifalar orasida xorijiy talabalar kontingenti hajmi bo'yicha eng kichik toifa hisoblanadi. Mazkur toifa **san'at, madaniyat va sport sohalariga ixtisoslashgan ta'lim dasturlarini** qamrab oladi. Ta'lim yo'nalishlarining o'ziga xos xususiyatlari xorijiy talabalarni jalb qilish ko'lamiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Mazkur toifaga milliy reytingda ishtirok etuvchi **12 ta oliy ta'lim tashkiloti** kiradi. Ularning **9 tasida** xorijiy talabalar tahsil olmoqda. Bu ijod (sport) toifasidagi oliy ta'lim tashkilotlarining ma'lum qismi xorijiy talabalarni qabul qilish jarayonida ishtirok etayotganini ko'rsatadi.

Ijod (sport) toifasidagi oliy ta'lim tashkilotlarida **21 548 nafar** talaba tahsil olmoqda. Shundan **70 nafari** xorijiy talabalar bo'lib, bu umumiy talabalar kontingentining **0,32 foizini** tashkil etadi. Mazkur ko'rsatkich ushbu toifada xorijiy talabalarni jalb qilish ko'لامي hozircha juda cheklangan ekanini ko'rsatadi.

Davlatlar guruhleri bo'yicha tahlil mazkur toifada xorijiy talabalar kontingenti nisbatan kam hajmda shakllanganini ko'rsatadi. Xususan, T₁ guruhiga **18 nafar**, T₂ guruhiga **27 nafar**, T₃ guruhiga **25 nafar** xorijiy talaba to'g'ri keladi. Bu ijod (sport) toifasidagi oliy ta'lim tashkilotlarida xorijiy talabalar turli davlatlar guruhleri hisobiga shakllanayotganini, biroq ularning umumiy soni nisbatan kamligini anglatadi.

10.2. Ijod (sport) toifasidagi oliy ta'lim tashkilotlari reytingi

Milliy reyting metodologiyasiga muvofiq, ijod (sport) toifasidagi oliy ta'lim tashkilotlari **"Xorijiy davlat fuqarosi bo'lgan talabalar ulushi"** indikator bo'yicha baholandi.

Yakuniy reyting bali xorijiy talabalarning mutlaq soniga emas, balki davlatlar guruhleri bo'yicha xorijiy talabalar tarkibi va talabalar kontingentini inobatga olgan holda hisoblangan vaznlashtirilgan indikator qiymati asosida aniqlandi.

Tahlil natijalari mazkur toifada ham xorijiy talabalar ulushi bo'yicha oliy ta'lim tashkilotlari o'rtasida farqlar mavjudligini ko'rsatadi.

Eng yuqori natijani **S.A. Gerasimov nomidagi Butunrossiya davlat kinematografiya universiteti (VGIK)ning Toshkent shahridagi filiali** qayd etib, xorijiy talabalar ulushi **9,48 foiz**, reyting bali esa **2 ballni** tashkil etdi.

Keyingi o'rinlarda **O'zbekiston davlat konservatoriyasi** (2,98 foiz, 0,629 ball) hamda **O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi** (2,60 foiz, 0,547 ball) joylashgan. Shuningdek, **Botir Zokirov nomidagi Milliy estrada san'ati instituti** va **Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati instituti** ham mazkur indikator bo'yicha nisbatan yuqori ko'rsatkichlarni namoyon etgan.

Reytingning quyi qismida joylashgan ayrim oliy ta'lim tashkilotlarida xorijiy talabalar ulushi juda past yoki umuman mavjud emas.

Xususan, **O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetining Nukus filiali**, **O'zbekiston davlat konservatoriyasining Nukus filiali** hamda **O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasining Urganch filialida** mazkur indikator bo'yicha **0 ball** qayd etilgan.

Umuman olganda, ijod (sport) toifasidagi oliy ta'lim tashkilotlari reytingi mazkur toifada xorijiy talabalarni jalb qilish ko'rsatkichlari bir xil shakllanmaganini ko'rsatadi.

Ayrim ixtisoslashgan oliy ta'lim tashkilotlari yuqori natijalarni namoyon etgan bo'lsa, aksariyat tashkilotlarda xorijiy talabalar ulushi nisbatan past darajada saqlanib qolmoqda.

6-jadval. Ijod (sport) toifasidagi oliy ta'lim tashkilotlarining reytingi

O'rin	Mulkchilik shakli	Oliy ta'lim tashkiloti nomi	T ₁	T ₂	T ₃	Umumiy kontingent	Ko'rsatkich	Ball
1	Xorijiy filial	S.A. Gerasimov nomidagi Butunrossiya davlat kinematografiya universiteti (VGIK)ning Toshkent shahridagi filiali	6	2	0	232	9,48%	2,000
2	Davlat	O'zbekiston davlat konservatoriyasi	3	7	10	1 107	2,98%	0,629
3	Davlat	O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi	1	5	2	578	2,60%	0,547
4	Davlat	Botir Zokirov nomidagi Milliy estrada san'ati instituti	0	1	6	548	1,46%	0,308
5	Davlat	Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati instituti	1	1	1	966	0,62%	0,131
6	Davlat	Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti	0	4	3	2 426	0,45%	0,096
7	Davlat	O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti	6	2	3	7 794	0,32%	0,068
8	Davlat	O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti	1	4	0	4 262	0,26%	0,054
9	Davlat	O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining Nukus filiali	0	1	0	1 672	0,12%	0,025
10	Davlat	O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetining Nukus filiali	0	0	0	1 564	0,00%	0,000
11	Davlat	O'zbekiston davlat konservatoriyasining Nukus filiali	0	0	0	243	0,00%	0,000
12	Davlat	O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasining Urganch filiali	0	0	0	156	0,00%	0,000

Izoh: ko'rsatkich Milliy reytingdagi "Xorijiy davlat fuqarosi bo'lgan talabalar ulushi" indikatori asosida ijod (sport) toifasi uchun maksimal 2 ball etib belgilangan.

Tahlil natijalari ijod (sport) toifasidagi **12 ta oliy ta'lim tashkilotining 9 tasida xorijiy talabalar tahsil olayotganini**, biroq ularning umumiy soni **70 nafarni**, toifadagi umumiy talabalar kontingentidagi ulushi esa **0,32 foizni** tashkil etishini ko'rsatadi.

Mazkur natija xorijiy talabalarning mutlaq soni bo'yicha ushbu toifa milliy reytingdagi eng kichik toifa ekanini anglatadi.

Reytingda **S. A. Gerasimov nomidagi Butunrossiya davlat kinematografiya universitetining Toshkent shahridagi filiali yetakchilik qilgan, 3 ta** oliy ta'lim tashkilotida esa xorijiy talabalar qayd etilmagan. Kontingent hajmining kichikligi sababli ayrim oliy ta'lim tashkilotlarida bir nechta xorijiy talabaning qo'shilishi yoki kamayishi indikator qiymatiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Shu bois natijalarni talqin qilishda mutlaq son va umumiy talabalar kontingentini birgalikda hisobga olish zarur.

XI. TURLI TOIFADAGI OLIY TA'LIM TASHKILOTLARI YETAKCHILARINI QIYOSIY TAHLIL QILISH

11.1. Xorijiy talabalar kontingenti bo'yicha toifalar yetakchilari

O'tkazilgan tahlil milliy reytingda ishtirok etuvchi har bir oliy ta'lim tashkilotlari toifasida xorijiy talabalarni jalb qilishda yetakchi oliy ta'lim tashkilotlari shakllanganini ko'rsatadi.

Biroq toifalar kesimida yetakchilikni baholashda xorijiy talabalarning mutlaq soni va ularning talabalar kontingentidagi ulushi hamda davlatlar guruhlar bo'yicha tarkibini hisobga olgan vaznlashtirilgan indikator qiymati bir xil natijani bermaydi.

Ayrim oliy ta'lim tashkilotlari xorijiy talabalarning mutlaq soni bo'yicha yetakchilik qilsa, boshqalari umumiy talabalar kontingentiga nisbatan xorijiy talabalar ulushining yuqoriligi va indikatorning vaznlashtirilgan qiymati hisobiga yuqori reyting natijalarini namoyon etadi. Shu bois mazkur bo'limda turli toifalardagi yetakchi oliy ta'lim tashkilotlari xorijiy talabalarning mutlaq soni va milliy reytingda qo'llanilgan indikator qiymati asosida qiyosiy tahlil qilinadi.

Toifalar kesimidagi qiyosiy tahlil amaliy, ijtimoiy-gumanitar hamda ijod (sport) toifalaridagi xorijiy talabalar soni bo'yicha yetakchi oliy ta'lim tashkiloti bilan reyting bali bo'yicha yetakchi oliy ta'lim tashkiloti har doim ham bir xil emasligini ko'rsatadi.

Xususan, **amaliy toifada** xorijiy talabalar soni bo'yicha **Toshkent axborot texnologiyalari universiteti** yetakchilik qilgan bo'lsa, reyting bali bo'yicha **Toshkent shahridagi Puchon universiteti** birinchi o'rinni egallagan.

Ijtimoiy-gumanitar toifasida xorijiy talabalar soni bo'yicha **Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti** yetakchi bo'lgan. Biroq reyting bali bo'yicha eng yuqori natija **TEAM University** tomonidan qayd etilgan.

Ijod (sport) toifasida xorijiy talabalar soni bo'yicha **O'zbekiston davlat konservatoriyasi** yetakchilik qilgan bo'lsa, reyting bali bo'yicha **S.A. Gerasimov nomidagi Butunrossiya davlat kinematografiya universiteti (VGIK)ning Toshkent shahridagi filiali** eng yuqori natijani namoyon etgan.

Tibbiyot toifasida esa xorijiy talabalar soni bo'yicha **Toshkent davlat tibbiyot universiteti** yetakchilik qilgan bo'lsa, reyting bali bo'yicha **Samarqand davlat tibbiyot universiteti** eng yuqori natijani namoyon etgan.

Toifalar yetakchilari: xorijiy talabalar soni va reyting bali

Toifalar bo'yicha xorijiy talabalar soni va reyting bali yetakchilari qiyoslangan.

TOIFA	XORIJIY TALABALAR SONI BO'YICHA YETAKCHI	REYTING BALI BO'YICHA YETAKCHI
Amaliy	Toshkent axborot texnologiyalari universiteti 93 xorijiy talaba	Toshkent shahridagi Puchon universiteti 3,0 ball
Tibbiyot	Toshkent davlat tibbiyot universiteti 4 155 xorijiy talaba	Samarqand davlat tibbiyot universiteti 3,0 ball
Ijtimoiy- gumanitar	Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti 272 xorijiy talaba	TEAM University 3,0 ball
Ijodiy (sport)	O'zbekiston davlat konservatoriyasi 20 xorijiy talaba	S.A. Gerasimov nomidagi Butunrossiya davlat kinematografiya universitetining (VGIK) Toshkent shahridagi birinchi xorijiy filiali 2,0 ball

8-rasm. Toifalar kesimida xorijiy talabalar soni va reyting bali bo'yicha yetakchilar, 2025-yil

Manba: "HEMIS" axborot tizimi ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

Izoh: reyting ballari har bir toifa doirasida alohida normallashtirilgan. Toifalar uchun belgilangan maksimal ballar farq qilgani sababli ularni o'zaro to'g'ridan-to'g'ri qiyoslash mumkin emas. Ballar faqat tegishli toifa doirasidagi yetakchini ko'rsatadi. TOP-1000 toifasidagi universitetlarga mazkur indikator bo'yicha alohida reyting bali hisoblanmaydi.

11.2. Xorijiy talabalar soni bo'yicha milliy yetakchi oliy ta'lim tashkilotlari

Oliy ta'lim tashkilotlari kesimidagi tahlil xorijiy talabalar kontingentining asosiy qismi yirik **tibbiyot oliy ta'lim tashkilotlari** hamda **xalqaro reytinglarning TOP-1000 taligiga kiruvchi mahalliy universitetlarda** jamlanganini ko'rsatadi.

Xorijiy talabalar soni bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichlar qayd etilgan **10 ta oliy ta'lim tashkilotining 7 tasi tibbiyot, 2 tasi TOP-1000, 1 tasi esa ijtimoiy-gumanitar** toifaga mansub.

Xorijiy talabalar soni bo'yicha **Toshkent davlat tibbiyot universiteti** yetakchilik qilib, unda **4 155 nafar** xorijiy talaba tahsil olmoqda.

Samarqand davlat tibbiyot universitetida mazkur ko'rsatkich **4 153 nafarni** tashkil etib, yetakchi ikki universitet o'rtasidagi farq atigi **2 nafar** ekanini ko'rsatadi.

Keyingi o'rinlarni **“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tadqiqot universiteti – 2 886 nafar, Buxoro davlat tibbiyot instituti – 2 178 nafar** hamda **O'zbekiston Milliy universiteti – 1 917 nafar** xorijiy talaba bilan egallagan.

Ushbu natijalar tibbiyot oliy ta'lim tashkilotlari bilan bir qatorda TOP-1000 toifasiga kiruvchi mahalliy universitetlar ham xorijiy talabalar kontingentining shakllanishida salmoqli o'rin tutishini ko'rsatadi.

Shuningdek, **Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot institutida 1 599 nafar, Andijon davlat tibbiyot institutida 1 410 nafar, Urganch davlat tibbiyot institutida 1 325 nafar, Toshkent davlat tibbiyot universiteti Termiz filialida 305 nafar** hamda **Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida 272 nafar** xorijiy talaba tahsil olmoqda.

Mazkur 10 ta oliy ta'lim tashkilotida jami **20 200 nafar** xorijiy talaba tahsil olib, bu respublika oliy ta'lim tashkilotlaridagi jami **24 647 nafar** xorijiy talabaning **81,96 foizini** tashkil etadi.

T/r	Oliy ta'lim tashkiloti nomi	Toifa	Xorijiy talabalar soni
1	Toshkent davlat tibbiyot universiteti	Tibbiyot	4 155
2	Samarqand davlat tibbiyot universiteti	Tibbiyot	4 153
3	“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tadqiqot universiteti	TOP-1000 universitetlari	2 886
4	Buxoro davlat tibbiyot instituti	Tibbiyot	2 178
5	O'zbekiston Milliy universiteti	TOP-1000 universitetlari	1 917
6	Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti	Tibbiyot	1 599
7	Andijon davlat tibbiyot instituti	Tibbiyot	1 410
8	Urganch davlat tibbiyot instituti	Tibbiyot	1 325
9	Toshkent davlat tibbiyot universiteti Termiz filiali	Tibbiyot	305
10	Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti	Ijtimoiy-gumanitar	272

7-jadval. Xorijiy talabalar soni eng yuqori bo'lgan oliy ta'lim tashkilotlari

Manba: “HEMIS” axborot tizimi ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

11.3. Xorijiy talabalar kontingenti cheklangan oliy ta'lim tashkilotlari

Tahlil natijalari milliy reytingda ishtirok etuvchi **17 ta oliy ta'lim tashkilotida xorijiy talabalar umuman qayd etilmaganini** ko'rsatadi.

Jumladan, bunday oliy ta'lim tashkilotlar **amaliy toifada 3 tani, ijtimoiy-gumanitar toifada 11 tani, ijod (sport) toifasida 3 tani** tashkil etadi. Bu xorijiy talabalarni jalb qilish natijalari **oliy ta'lim tashkilotlari kesimida sezilarli darajada farqlanishini** ko'rsatadi.

Mazkur farqlar oliy ta'lim tashkilotlarining ixtisoslashuvi, **xorijiy tillardagi ta'lim dasturlari, xalqaro hamkorlik ko'lami, qabul siyosati** hamda **xorijiy talabalar uchun yaratilgan akademik va maishiy sharoitlar** bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Biroq ushbu omillarning ta'sirini aniqlash uchun xorijiy talabalar kontingenti cheklangan har bir oliy ta'lim tashkilot bo'yicha qo'shimcha tahlil o'tkazish zarur.

XII. ASOSIY XULOSALAR VA YAKUNIY QISM

“HEMIS” axborot tizimining 2025-yilgi ma’lumotlari asosida oliy ta’lim tashkilotlarida tahsil olayotgan xorijiy talabalar kontingentining miqdori, davlatlar guruhlar bo’yicha tarkibi, hududlar va oliy ta’lim tashkilotlari kesimidagi taqsimoti, ularning toifalari kesimidagi xususiyatlari hamda milliy reyting indikatori bo’yicha natijalari kompleks tahlil qilindi.

Birinchidan, 2025-yil holatiga ko’ra, oliy ta’lim tashkilotlarida **24 647 nafar** xorijiy talaba tahsil olmoqda. Ularning barchasi davlatlar guruhlar bo’yicha tasniflangan.

Ikkinchidan, **tibbiyot toifasidagi** oliy ta’lim tashkilotlari xorijiy talabalarni jalb qilish bo’yicha barcha toifalar orasida **yetakchi o’rinni** egallaydi.

Mazkur toifada **15 656 nafar** xorijiy talaba tahsil olib, ularning umumiy talabalar kontingentidagi ulushi **14,32 foizni** tashkil etadi. Bu tibbiyot ta’limi xorijiy talabalar uchun **eng jozibador yo’nalishlardan biri** ekanini tasdiqlaydi.

Uchinchidan, **xalqaro reytinglarning TOP-1000 taligiga kiruvchi mahalliy universitetlar** xorijiy talabalar kontingentini shakllantirishda alohida o’rin tutadi.

Ushbu toifaga kiruvchi uchta universitetda jami **4 846 nafar** xorijiy talaba tahsil olmoqda va ular mazkur universitetlardagi umumiy talabalar kontingentining **8,01 foizini** tashkil etadi. Ularning **4 745 nafari** T₂ guruhiga mansub bo’lib, bu ushbu toifadagi universitetlarda xorijiy talabalar kontingenti asosan **Markaziy Osiyo davlatlari** hisobiga shakllanganini ko’rsatadi.

To’rtinchidan, xorijiy talabalarning mutlaq soni bilan milliy reyting indikatori bo’yicha egallangan o’rin har doim ham o’zaro mos kelmaydi.

Milliy reyting metodologiyasida faqat xorijiy talabalar soni emas, balki ularning **umumiy talabalar kontingentidagi ulushi** hamda **T₁, T₂ va T₃ davlatlar guruhlar bo’yicha tarkibi** hisobga olinadi. Shu sababli reyting natijalarini talqin qilishda mutlaq son, nisbiy ulush va vaznlashtirilgan indikator qiymati birgalikda baholadi.

Beshinchidan, xorijiy talabalarni jalb qilish darajasi oliy ta’lim tashkilotlarining toifasi va ixtisoslashuviga qarab sezilarli farq qiladi.

Tibbiyot va TOP-1000 toifalarida xorijiy talabalarining soni va ulushi nisbatan yuqori bo'lgani holda, amaliy, ijtimoiy-gumanitar, ijod (sport) toifalarida ushbu ko'rsatkichlar pastroq darajada shakllangan.

Bu xorijiy talabalarni jalb qilish imkoniyatlari barcha ta'lim yo'nalishlari va oliy ta'lim tashkilotlarida bir xil emasligini ko'rsatadi.

Oltinchidan, ayrim oliy ta'lim tashkilotlarida xorijiy talabalar kontingentining cheklanganligi xalqarolashuv uchun zarur institutsional imkoniyatlarni alohida baholashni talab etadi.

Bunda xorijiy tillarda, birinchi navbatda, **ingliz tilida tashkil etilgan ta'lim dasturlari, ingliz tilida dars berish salohiyatiga ega professor-o'qituvchilar ulushi, xalqaro hamkorlik ko'lami, xorijiy talabalar uchun akademik va maishiy shart-sharoitlar** hamda **rekruting mexanizmlari** muhim omillar sifatida qaralishi lozim.

Yettinchidan, xorijiy talabalar geografiyasining muayyan davlatlar va mintaqalarda jamlangani kontingentni diversifikatsiya qilish zaruratini ko'rsatadi.

Jahon banki tasnifiga muvofiq yuqori daromadli davlatlardan kelgan T_1 guruhi talabalarining ulushi **4,66 foizni** tashkil etadi. Shu bois xorijiy talabalar jalb qilinadigan mamlakatlar doirasini kengaytirish va maqsadli ta'lim bozorlari bilan hamkorlikni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

Sakkizinchidan, xorijiy talabalar kontingenti cheklangan sondagi oliy ta'lim tashkilotlarida yuqori darajada jamlangan.

Xorijiy talabalar soni eng yuqori bo'lgan **10 ta** oliy ta'lim tashkilotida **20 200 nafar talaba** tahsil olib, bu respublikadagi xorijiy talabalar umumiy sonining **81,96 foizini** tashkil etadi.

Mazkur natija xorijiy talabalarni jalb qilish bo'yicha oliy ta'lim tashkilotlar o'rtasida sezilarli farqlar mavjudligini ko'rsatadi.

Yakuniy natijalar O'zbekiston oliy ta'lim tizimida xorijiy talabalarni qabul qilish bo'yicha muayyan **tashkiliy va amaliy tajriba shakllanganini**, biroq kontingentning hududlar, ta'lim yo'nalishlari, oliy ta'lim tashkilotlari va davlatlar kesimida bir tekis taqsimlanmaganini ko'rsatadi.

Shu bois kelgusida xorijiy talabalarni jalb qilish siyosatini oliy ta'lim tashkilotlari toifasi, ta'lim yo'nalishlari va maqsadli davlatlar xususiyatlarini hisobga olgan holda shakllantirish, natijalarni esa mutlaq son, nisbiy ulush, geografik tarkib va ma'lumotlar sifati asosida kompleks baholash maqsadga muvofiq.

MILLIY REYTING TALABLARIGA MUVOFIQ REYTINGDA ISHTIROK ETMAYDIGAN OLIY TA'LIM TASHKILOTLARI RO'YXATI

Oliy ta'lim tashkilotlarining milliy reytingini yuritish to'g'risidagi nizom talablariga muvofiq, **faoliyat yuritayotganiga 3 yil to'lmagan** yoki **bitiruvchilari mavjud bo'lmagan 32 ta oliy ta'lim tashkiloti** 2025-yil yakunlari bo'yicha milliy reytingda ishtirok etmaydi. Jumladan, **23 ta oliy ta'lim tashkilotida bitiruvchilar mavjud emas, 9 ta oliy ta'lim tashkilotining faoliyat davri esa 3 yilga to'lmagan.**

T/r	Oliy ta'lim tashkiloti nomi	Toifa	Sabab
1	Cyber University of Uzbekistan	Amaliy	Faoliyati 3 yildan kam
2	Sankt-Peterburg davlat universitetining Toshkent filiali	Amaliy	Bitiruvchilari yo'q
3	Acharya universiteti	Amaliy	Bitiruvchilari yo'q
4	Al-Xorazmiy universiteti	Amaliy	Faoliyati 3 yildan kam
5	Digital University	Amaliy	Bitiruvchilari yo'q
6	PDP University	Amaliy	Bitiruvchilari yo'q
7	Samarqand xalqaro texnologiya universiteti	Amaliy	Bitiruvchilari yo'q
8	Piza universiteti (Italiya)ning Toshkent shahridagi filiali	Amaliy	Bitiruvchilari yo'q
9	Impuls BSR	Tibbiyot	Bitiruvchilari yo'q
10	EMU universiteti	Tibbiyot	Bitiruvchilari yo'q
11	Farmatsevtika texnika universiteti	Tibbiyot	Bitiruvchilari yo'q
12	Toshkent davlat tibbiyot universitetining Chirchiq filiali	Tibbiyot	Faoliyati 3 yildan kam
13	Tashkent Metropolitan University	Ijtimoiy-gumanitar	Bitiruvchilari yo'q
14	Abu Rayhon Beruniy universiteti	Ijtimoiy-gumanitar	Faoliyati 3 yildan kam
15	"Buyuk ipak yo'li" innovatsiyalar universiteti	Ijtimoiy-gumanitar	Bitiruvchilari yo'q
16	M. Auezov nomidagi Janubiy Qozog'iston universitetining Chirchiq shahridagi filiali	Ijtimoiy-gumanitar	Faoliyati 3 yildan kam
17	Oxus University	Ijtimoiy-gumanitar	Faoliyati 3 yildan kam
18	Perfect University	Ijtimoiy-gumanitar	Bitiruvchilari yo'q
19	"Sarbon" universiteti	Ijtimoiy-gumanitar	Bitiruvchilari yo'q

T/r	Oliy ta'lim tashkiloti nomi	Toifa	Sabab
20	Sharq University	Ijtimoiy-gumanitar	Faoliyati 3 yildan kam
21	Toshkent iqtisodiyot va texnologiyalar universiteti	Ijtimoiy-gumanitar	Bitiruvchilari yo'q
22	Toshkent shahridagi Amerika texnologiya universiteti	Ijtimoiy-gumanitar	Faoliyati 3 yildan kam
23	University of Science and Technologies	Ijtimoiy-gumanitar	Bitiruvchilari yo'q
24	Urganch innovatsion universiteti	Ijtimoiy-gumanitar	Bitiruvchilari yo'q
25	Xalqaro ijtimoiy innovatsiyalar universiteti	Toifa mavjud emas	Faoliyati 3 yildan kam
26	Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o'zgarishini o'rganish universiteti (Green University)	Ijtimoiy-gumanitar	Bitiruvchilari yo'q
27	Ijtimoiy va siyosiy fanlar instituti	Ijtimoiy-gumanitar	Bitiruvchilari yo'q
28	Tashkent International University	Ijtimoiy-gumanitar	Bitiruvchilari yo'q
29	Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti	Ijtimoiy-gumanitar	Bitiruvchilari yo'q
30	University of Business and Science	Ijtimoiy-gumanitar	Bitiruvchilari yo'q
31	Raqamli iqtisodiyot va agrotexnologiyalar universiteti	Ijtimoiy-gumanitar	Bitiruvchilari yo'q
32	N.I. Pirogov nomidagi Rossiya milliy tadqiqot tibbiyot universitetining Toshkent filiali	Tibbiyot	Bitiruvchilari yo'q

Jahon bankining Yuqori daromadli iqtisodiyotga ega rivojlangan mamlakatlar ro'yxati (T₁ guruhi)ga kiruvchi davlatlar ro'yxati

T₁ guruhiga Jahon bankining daromad darajasi bo'yicha tasnifiga muvofiq yuqori daromadli iqtisodiyotlar qatoriga kiritilgan davlat va hududlar fuqarosi bo'lgan talabalar mansub hisoblanadi. Mazkur davlat va hududlar fuqarosi bo'lgan talabalar milliy reyting indikatorini hisoblashda eng yuqori vazn koeffitsiyenti bilan inobatga olinadi.

Jahon bankining 2027 moliya yili uchun amaldagi tasnifiga ko'ra, aholi jon boshiga yalpi milliy daromadi **14 375 AQSH dollaridan yuqori** bo'lgan davlat va hududlar yuqori daromadli iqtisodiyotlar sifatida tasniflanadi.⁶ Mazkur guruhga jami **87 ta davlat va hudud** kiritilgan.

T/r	Davlat / hudud	T/r	Davlat / hudud	T/r	Davlat / hudud
1	Amerika Samoasi	19	Kosta-Rika	37	Vengriya
2	Andorra	20	Xorvatiya	38	Islandiya
3	Antigua va Barbuda	21	Kyurasao	39	Irlandiya
4	Aruba	22	Kipr	40	Men oroli
5	Avstraliya	23	Chexiya	41	Isroil
6	Avstriya	24	Daniya	42	Italiya
7	Bagama orollari	25	Estoniya	43	Yaponiya
8	Bahrayn	26	Farer orollari	44	Koreya Respublikasi
9	Barbados	27	Finlyandiya	45	Kuvayt
10	Belgiya	28	Fransiya	46	Latviya
11	Bermud orollari	29	Fransuz Polineziyasi	47	Lixtenshteyn
12	Britaniya Virjiniya orollari	30	Germaniya	48	Litva
13	Bruney-Darussalam	31	Gibraltar	49	Lyuksemburg
14	Bolgariya	32	Gretsiya	50	Makao (Xitoy MMH)
15	Kanada	33	Grenlandiya	51	Malta
16	Kayman orollari	34	Guam	52	Monako
17	Normand orollari	35	Gayana	53	Nauru
18	Chili	36	Gonkong (Xitoy MMH)	54	Niderlandiya
55	Yangi Kaledoniya	67	Rossiya Federatsiyasi	79	Shveysariya
56	Yangi Zelandiya	68	San-Marino	80	Tayvan (Xitoy)
57	Shimoliy Marian orollari	69	Saudiya Arabistoni	81	Trinidad va Tobago

⁶ World Bank. *World Bank Country and Lending Groups*, Fiscal Year 2027 classification. (14.07.2026)
URL: <https://datahelpdesk.worldbank.org/knowledgebase/articles/906519-world-bank-country-and-lending-groups>

T/r	Davlat / hudud	T/r	Davlat / hudud	T/r	Davlat / hudud
58	Norvegiya	70	Seyshel orollari	82	Tyorks va Kaykos orollari
59	Ummon	71	Singapur	83	Birlashgan Arab Amirliklari
60	Palau	72	Sint-Marten (Niderlandiya qismi)	84	Buyuk Britaniya
61	Panama	73	Slovakiya	85	Amerika Qo'shma Shtatlari
62	Polsha	74	Sloveniya	86	Urugvay
63	Portugaliya	75	Ispaniya	87	Virjiniya orollari (AQSH)
64	Puerto-Riko	76	Sent-Kits va Nevis		
65	Qatar	77	Sen-Marten (Fransiya qismi)		
66	Ruminiya	78	Shvetsiya		

Manba: Jahon banki tasnifi asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Izoh: Jahon banki tasnifida “iqtisodiyot” atamasi siyosiy mustaqillikni anglatmaydi. U alohida iqtisodiy va statistik ma’lumotlar yuritiladigan davlatlar hamda hududlarni qamrab oladi.

FOYDALANILGAN MANBALAR

I. Normativ-huquqiy manbalar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 10-apreldagi "Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar tizimini takomillashtirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-58-son Farmoni.

URL: <https://lex.uz/docs/8129755>

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 5-maydagi "Ta'lim sifatini ta'minlash va ta'lim xizmatlari ko'rsatish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-76-son Farmoni.

URL: <https://lex.uz/docs/7513052>

II. Rasmiy ma'lumot va tasnif manbalari

3. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi. "Oliy ta'lim jarayonlarini boshqarish axborot tizimi" (HEMIS). 2025-yil ma'lumotlari.

URL: <https://hemis.uz>

4. The World Bank. *World Bank Country and Lending Groups: Fiscal Year 2027 Classification*.

URL: <https://datahelpdesk.worldbank.org/knowledgebase/articles/906519-world-bank-country-and-lending-groups>

III. Xalqaro metodologik va qiyosiy manbalar

5. QS Quacquarelli Symonds. *QS World University Rankings: Methodology*.

URL: <https://www.topuniversities.com/world-university-rankings/methodology>

6. QS Quacquarelli Symonds. *International Student Ratio Indicator*.

URL: <https://support.qs.com/hc/en-gb/articles/4403961727506-International-Student-Ratio-Indicator>

7. QS Quacquarelli Symonds. *QS Asia University Rankings: Methodology*.

URL: <https://www.topuniversities.com/asia-rankings/methodology>

8. QS Quacquarelli Symonds. *QS World University Rankings: Central Asia 2025*.

URL: <https://www.topuniversities.com/asia-university-rankings/central-asia/2025>

9. Times Higher Education. *World University Rankings 2025: Methodology*. URL: <https://www.timeshighereducation.com/world-university-rankings/world-university-rankings-2025-methodology>
10. OECD. *Education at a Glance 2025: OECD Indicators*. OECD Publishing, Paris, 2025.
URL: <https://doi.org/10.1787/1c0d9c79-en>
11. UNESCO Institute for Statistics (UIS). *Statistics on Internationally Mobile Students: Definitions and Methodology*.
URL: <https://uis.unesco.org/en/methodology/communication-et-information>

Muallif: Mullayev Aziz

Lavozimi: Oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim tashkilotlari reytingini yuritish guruhi bosh inspektori

Muallif: Daliyev Shuxrat

Lavozimi: Oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim tashkilotlari reytingini yuritish guruhi bosh inspektori



UNDER THE ADMINISTRATION OF THE PRESIDENT OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN



+998 55 505 30 30



info@nqaae.uz
www.nqaae.uz



@nqaaeuz



@nqaaeuzbot